

Боқий фикр

Соғлом авлодни тарбиялаш — буюк давлат пойдеворини, фаровон ҳаёт асосини қуриш, демакдир.

Ислом КАРИМОВ



Ma'rifat

ENLIGHTENMENT XALQ ZIYOLILARI GAZETASI معرفت

1931-yildan chiqqan boshlagan • E-mail: info@marifat.uz • 2013-yil 13-mart, chorshanba №21 (8566)

ДУНЁГА ЧИҚҚИН-У, ЎЗИНГ БЎЛИБ ҚОЛ!



Ўқувчиларнинг фани пухта ўзлаштириши учун кўргазмалар курашлари ва мультимедиа воситаларининг аҳамияти катта. Айниқса, чет тилларни ўқитишда техник воситалардан фойдаланиш ва индивидуал ёндашув муҳим. Тошкент шаҳридаги 69-муҳташам мактабининг инглиз тили фани ўқитувчиси Наргиза Раҳматуллаева машғулотларни электрон дарсликлардан фойдаланган ҳолда миллий анъана ва қадриятлар асосида ташкил этишга интилади.

— Ўқувчиларга хорижий тилларни ўргатишда уларнинг ёшига мос таълимий уйинлардан фойдаланаман, — дейди муаллима. — "Men kимман?" ("Who am I?"), "Музёрар" ("Icebreaker") сингари қизиқарли машқлар ўқувчиларнинг эътиборини жалб қилишда самара беради. Шунингдек, боланинг нутқини ривожлантириб, сўз бойлигини оширишга хизмат қилади.

... Санобар ўзи униб-ўсган вилоятининг эркин иқтисодий ҳудудга айланганидан, шу юртининг бир фарзанди, қолаверса, касб-кори ортидан қатор хорижий мамлакатларда бўлиб қайтган, «Йилнинг энг яхши фан ўқитувчиси» кўрик-танловининг республика босқичига бўлган жараёнларни муваффақиятли босиб ўтган муаллима сифатида ниҳоятда қувонди. Чунки у дунёни кўрди, мамлакатда бўлаётган ислохотларнинг натижаси, вилоятидаги ўзгаришларнинг самараси халқ фаровонлигига нечоғлик ижобий таъсир этишини уйғоқниғоқ ила англай олади. «Бу янгиликларни сабаб қанчадан-қанча ёшларимиз учун иш ўринлари яратилди...» — хаёлидан ўтказарди у. Лекин... Ана шу савол Санобарни мутасаддилар билан рўбарў этди: «Ишчи-хизматчилар бизга жуда керак. Ойлик маошлари, мукофот пуллари ҳам мўмайгина. Мурожат қилувчиларнинг кети узилмаяпти. Аммо уларнинг хорижий тилларни билмаслиги ўзларини ҳам, иш берувчиларни ҳам турли муаммолар билан тўқнаштиради». Бу гап Санобарни яна ҳам ўйлантириб қўйди: «Ватанимда ўқитувчиларга шунчалар ишонч билдириляётган, меҳнатимизга эътибор бериляётган, ким кўрса «устоз» дея қўлини кўксига қўйиб ўрнидан қўзгалсаю, мен жамиятимизда рўй бераётган бундай ҳолатларга бефарқ қараб турсам?» деган ўйлар унга тинчлик бермасди.

(Давоми 3-бетда)

МЕВАЛАРНИНГ ЯНГИ НАВЛАРИ



Кўчат эк, уруғ қада! Бунёдкорликка чорловчи бу эзгу даъват замирида улкан маъно мужассам. Фарзандлар баркамоллиги ва ҳаёт бардавомлигига ишора қилувчи ушбу қадимий удумимиз бугунги дорилмомон замонда янги руҳ ва янги маънога мазмун касб этиб бормоқда.

7

ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ:

ГОРИЗОНТАЛ ВА ВЕРТИКАЛ ЁНДАШУВ НИСБАТИ

Ғарбдаги моддий, реал манфаатлар устуворлигидан кўра Шарқ халқларидаги маънавий омиллар, айниқса, инсон шаъни, обрў-эътибори, нафсонияти, орияти, виждони устун туради.

8-9

МУҚТАШАМ СПОРТ МАЖМУАЛАРИ



Энг аввало, ёшлар камоли учун хизмат қилсин

15

ПЎЛАТДАРХОНДАГИ ЗАМОНАВИЙ УЙЛАР

Самарқанд шаҳридан чиқиб, Окдарё туманига кириб борар экансиз, Зарафшон дарёси ёқасида бунёд этилган кўркам уй-жойлар эътиборингизни тортади. Негаки, бу уйлар бошқа қишлоқлардаги каби паст-баланд, турли ўлчам ва кўринишда эмас, барчаси мукаммал лойиҳа асосида, ҳар томонлама замонавий қилиб қурилган. Кенг ва раво кўчалар, улар атрофидаги савдо ва маиший хизмат кўрсатиш мажмуалари, болалар спорт майдончалари, ҳатто йўл четидаги яшил майсазору янги экилган дарахт кўчатлари ҳам бир-бирига уйғун, бир-бирини тўлдирди.

Бу маскан — кейинги йилларда намунавий лойиҳалар асосида уй-жойлар, ижтимоий соҳа объектлари бунёд этилган Пўлатдархон маҳалласи.

Президентимиз Ислом Каримовнинг 2009 йил 3 августда қабул қилинган "Қишлоқ жойларда уй-жой қурилиши қўламини кенгайтиришга оид кўшимча чоратadbirlar тўғрисида"ги қарори асосида юртимизнинг барча ҳудудида бўлган сингари Самарқанд вилояти қишлоқларида ҳам намунавий лойиҳа асосида уй-жойлар барпо этишга киришилди.



Давоми 2-бетда.

(Давоми. Боши 1-бетда).

Халқимиз учун ҳеч қимдан кам бўлмаган турмуш шароити яратиш, қишлоқ жойларда яшовчи аҳоли фаровонлигини ошириш каби эзгу мақсадлар билан бошланган ушбу сай-ҳаракатлар туфайли дастлаб 2009 йилда Жомбой, Пастдаргом ва Пахтачи туманларининг ҳар бирида йигирматадан уй-жойлар бунёд этилди. Кейинчалик вилоятнинг барча туманидаги қишлоқларда намунавий лойиҳалар асосида турар-жойлар қурилиши бошланди ва ўтган тўрт йил давомида барча шарт-шароит ва имкониятларга эга 2300 дан зиёд ана шундай замонавий уй бунёд этилиб, аҳолига узоқ муддатли, имтиёзли банк кредитлари асосида берилди.

Оқдарё туманидаги Пўлатдархон маҳалласида 2010 йилда йигирмата янги уй-жой қурилиб, бу уйлarda қишлоқ аҳли шаҳардагидек шароитда турмуш кечира бошлагач, ҳудудда қуриладиган уйлarga талабдорлар кўпайди. Натижада 2011 йилда 69, ўтган йилда эса 169 янги уй барпо этилиб, ўз эгаларига топширилди.

— Маҳалламизнинг ушбу ҳудудда замонавий уй-жойлар билан бирга таълим ва тиббиёт муассасалари, савдо ва маиший хизмат кўрсатиш мажмуалари, болалар спорт майдончалари бунёд этишга ҳам алоҳида эътибор қаратилмоқда, — дейди "Пўлатдархон" маҳалла фуқаролар йиғини раиси Соҳиб Абдиев. — Жумладан, янги қурилган 140 ўринли 25-умум-

таълим мактабида бугунги кунда маҳалладошларимиз фарзандлари таълим-тарбия олмақда. Компьютер синфи, фан лабораториялари, очик спорт майдонлари мавжуд муассаса келгусида кенгайиб, кўшимча ўқув биноси ва спорт зали қурилиши режалашти-

рамкорлик қилишимизда муҳим омил бўлмоқда. Бу сай-ҳаракатларимиз туфайли ўтган йили маҳалламизда бирорта жиноят ва ҳуқуқбузарлик содир этилмади. Милиция таянч пунктимиз яқинда ўтказилган "Намунали милиция таянч пункти" кўрик-тан-

амалга оширилаётган ободонлаштириш, кўкаламзорлаштириш тадбирларида фаол иштирок этиб, янги ҳовлилар ва уларнинг атрофида эзгу ниятлар билан дарахт кўчатлари ўтказмоқда. Ҳар бир хонадон бекаси ўз ойли олдидан гулзорлар ташкил этаётир. Янги кўшнлар биргаликда сумалак тайёрлаб, байрам тадбирларида тайёргарлик кўрмоқда.

— 2010 йилда қурилган уйлardan бирини харид қилган эдик, — дейди янги уй соҳибаси, 25-умумтаълим мактаби ўқитувчиси Азиза Нурмуродова. — Ҳозирда бу ерда 15—20 нафар қўни-қўшни яшаган бўлсак, бугун маҳалламиз анча кенгайди. Қишлоғимизда шаҳардагидек шароит яратилди. Болаларимиз дарсдан бўш вақтларида фан ва спорт тўғрисида машғулотларида қатнашади. Маҳалламиз марказидаги спорт майдончаси ҳам доимо болажонлар билан гавжум. Умуман, янги уйлар қурилиши билан қишлоғимизда янгича турмуш маданияти қарор топди. Айниқса, биз, аёлларнинг оғирини энгил бўлди. Бунинг учун Президентимиздан беҳад миннатдоримиз.

Қишлоқларимизда бунёдкорлик ишлари кўлами йил сайин кенгайиб, халқимиз турмуш фаровонлиги тобора юксалиб бораётгани барча соҳада амалга оширилаётган илҳомлар инсон манфаатларига қаратилгани ва давлатимизнинг халқпарвар сиёсатининг амалий ифодасидир.

Ғолиб ҲАСАНОВ,
Ўза мухбири

ПЎЛАТДАРХОНДАГИ ЗАМОНАВИЙ УЙЛАР



А.ИСРОИЛОВ (Ўза) олган суратлар

рилган. Мактаб яқинида жойлашган "Қирқдархон" қишлоқ врачлик пункти эса маҳалламизнинг уч мингдан зиёд аҳолисига намунали тиббий хизмат кўрсатаётир. Муассаса зарур тиббий жиҳоз ва ускуналар билан таъминлангани боис барча ёшдаги кишиларга шу ернинг ўзида бирламчи тиббий ёрдам кўрсатиш имконияти мавжуд. Ўтган йили маҳалла фуқаролар йиғини ва милиция таянч пункти учун янги бино қурилди. Профилактика инспектори Абдусобир Ботиров билан бир бинода фаолият кўрсатишимиз маҳаллада осойишталикни таъминлаш ва турли кўнгилсиз ҳолатларнинг олдини олиш, оилаларда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, вояга етмаганлар билан ишлаш борасида яқин

ловининг мамлакат босқичларида қўлиб бўлди ва "Матиз" автомашинаси билан тақдирланди.

Ҳудудда бир неча савдо ва хизмат кўрсатиш шохобчалари фаолият кўрсатмоқда. Улар қаторига яқинда яна бир йирик мажмуа — аҳолига маиший хизмат кўрсатиш маркази қўшилади. Гузаллик салони ва сартарошхона, уй-рўзгор буюмлари тўзатиш устахонаси каби шохобчаларни ўз ичига оладиган ушбу комплексида йигирмага яқин янги иш ўринлари яратилади. Бундан ташқари, жорий йилда маҳаллада яна олтишта янги уй-жой ва болалар богчаси қуриш ишлари жадал давом этмоқда.

Маҳалла аҳли шу кунларда Наврўз байрами олдидан юртимиз бўйлаб кенг кўламада

Самарқанд вилоят педагог кадрлари кайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти билан Самарқанд шаҳридаги 1-умумтаълим мактаби ўртасидаги ҳамкорлик алоқалари яхши йўлга қўйилган.

ҲАМКОРЛИК ДАРС САМАРАДОРЛИгини ОШИРМОҚДА

Замонавий жиҳозланган синфхоналарда янги педагогик технологиялар: "Виртуал саҳна", "Чўққини забт этиш", "Нилуфар страгегияси", "Детектив", "Конференция", "Такдимот", "Ўз ўрнини танла!" каби усуллардан фойдаланиб, бир-биридан қизиқари, ноанъанавий дарслар ташкил этилмоқда. Яқинда институтда малака ошираётган тарих фани ўқитувчилари мактабнинг таърибли педагоглари С.Йўлдошева ҳамда Х.Сирожеванинг замонавий услублар ва электрон манбалардан фойдаланиб ўтган машғулотлари билан танишдилар.

— Мактабимизда барча шароитлар яратилган, — дейди тарих фани ўқитувчиси С.Йўлдошева. — Тарих хонасида юзлаб қўшимча адабиётлар, ўқув қўлланмалари, 30дан зиёд тарихий ва замонавий хариталар, мультимедиа воситалари, видеопроектор, видеодарслар мажмуасидан фойдаланиш машғулотлар самарадорлигини оширмоқда. Институтнинг таърибли ўқитувчилари билан мунтазам равишда ўрнатилган ҳамкорлик натижасида "Еш тарихчилар" тўғраги намунали фаолият юритилмоқда.

Ҳаким ЖЎРАЕВ,
"Ma'rifat" мухбири

ОБОДОНЛАШТИРИШ ОЙЛИГИ ДАВОМ ЭТМОҚДА

Ўзбекистон Савдо-саноат палатасида "Ўзбекистон ижтимоий масъулиятли фуқаролари форуми" муассасаси жамоатчилик кенгашининг навбатдаги йиғилиши бўлиб ўтди.

Тадбирда Ўзбекистон Касаба уюшмалари федерацияси кенгаши раиси Т.Норбоева, Савдо-саноат палатаси раиси А.Шайхов, "Ўзбекистон ижтимоий масъулиятли фуқаролари форуми" муассасаси директори А.Хўжаева, Ўзбекистон Электрон оммавий ахборот воситалари миллий ассоциацияси бошқаруви раиси Ф.Абдухаликов ва бошқалар Президентимиз Ислам Каримов раҳнамолигида аҳолини кучли ижтимоий ҳимоялаш, боқий аънава ва кадрлариярмиани асраб-авайлаш, мазмун-моҳиятини

ёшлар ўртасида тарғиб этишга алоҳида эътибор қаратилаётганини таъкидлади.

"Ўзбекистон ижтимоий масъулиятли фуқаролари форуми" муассасаси фаолиятида ҳамюртларимизнинг ижтимоий, тадбиркорликка оид гоя ва ташаббусларини қўллаб-қувватлаш, уларни амалга ошириш учун яқиндан кўмаклашиш масаласи устувор ўрин тутди.

Наврўз байрами арафасида мазкур жамоат ташкилоти томонидан мамлакатимизнинг Қорақалпоғистон Республикаси, барча вилоятлар ва Тошкент шаҳрида "Ўзбекистон — менинг уйим" шиори остида ободонлаштириш ойлиги ўтказилмоқда. Жорий йилнинг 20 февралдан бошланган ушбу ижтимоий лойиҳа доирасида мева, манзарали дарахт кўчат-

лари ва гуллар ўтказилиб, боғлар барпо этилмоқда.

Айни пайтда ойлик доирасидаги «Ойдин кўчалар» акцияси кўча ва хиёбонларга чироқлар ўрнатиш имконини бераётган бўлса, «Қарияларга минг эъзоз» акцияси давомида ёши улуг, ёлғиз кексалар ҳолидан хабар олинб, уларга уй-рўзгор юмушларида яқиндан кўмаклашилмоқда. Наврўз байрамига бағишлаб, Саховат уйлари, ихтисослаштирилган шифо масканлари, маҳаллаларда нуронийлар учун маърифий тадбирлар, концерт ва кўргазмалар ташкил этилмоқда.

Он-лайн тартибда ўтган йиғилишда Тошкент, Сирдарё ва Жиззах вилоятларида мазкур ойлиқнинг бориши атрофича муҳокама этилди.

Назokat УСМОНОВА,
Ўза мухбири

ИНТЕРФАОЛ ХИЗМАТЛАР ЙЎЛГА ҚЎЙИЛМОҚДА

Миллий матбуот марказида Давлат статистика қўмитаси томонидан «Давлат статистика қўмитасининг интерфаол хизматларини фаоллаштириш ва тақомиллаштириш» мавзусида матбуот анжумани ўтказилди.

Тадбирда республикада кулай ишбилармонлик муҳитини яратиш, бизнес субъектлари ташкил этилишини соддалаштириш ва уларнинг янада эркин фаолият юритишини таъминлаш борасида изчил ҳамда

аниқ мақсадга йўналтирилган чора-тадбирлар амалга оширилаётгани таъкидланди.

Шунингдек, қўмита томонидан давлат статистика хисоботларини электрон кўринишда тақдим этишни кенгайтириш бўйича амалий чоралар қўрилаётгани ҳам қайд этилди.

Сурайё СИРОЖИДДИНОВА,
"Ma'rifat" мухбири

(Давоми. Боши 1-бетда).

Меҳнат қилаверинг, рағбатини кўрасиз!

Фикрларини бир жойга жамлаган Санобар мактаб раҳбари Сайёра Усмонова эшигини қокди. «Жуда яхши. Маъмурият томонидан нима ёрдам керак бўлса, мурожаат қилаверинг, — дея унинг инглиз тили тўғрисидаги тақлифини эшитиб мамнун бўлди директор. — Бу ташаббусингиз бугунги кун талабига хусусан, Президентимизнинг яқинда эълон қилинган «Чет тилларини ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорига «лаббай» дея берган жавобингиз ҳамдир».

— Халқаро анжуманда иштирок этганимда хорижий ҳамкасбларимиздан бири ўз маърузасида ажойиб тажриба хусусида сўз очгани, — дейди Санобар. — Олимлар иккита бир хил идишдаги сувга бир хил навдаги шолни солиб, тоқчаларга ёнма-ён қўйишибди. Бирига ҳар кун сув қуйишди: «Сен, албатта, энг серхосил нав эканини исботлайсан. Сендан тотли неъматлар пиширилади» каби илиқ сўзларни айтишаркан. Иккинчисига эса: «Қилган меҳнатларимиз самарасиз кетиши аниқ. Сени парвариллашдан наф йўқ» дея қўйиб кетишаркан. Ниҳоят, кун келиб биринчи идишдаги шоллар барқ уриб ўсибди. Иккинчисидagi могорлаб, қирий бошлабди. Қиссадан ҳисса шуки, ишонч ва меҳрда гап кўп. Мен ўқувчиларимнинг ҳатто камчилигини ҳам ютук сифатида: «Ана бугун талаффузинг анча яхши, уринишда давом этсанг, эртага бундан-да яхши бўлади» дея қўллаб-қувватлашга ҳаракат қиламан. Тўғарақ машғулотлари аввалида, тўғриси: «Сабоқларимиз пуллик» дея эълон қилганим. Аммо кузатишларимдан сўнг шундай ҳулосага келдимки, айрим ўқувчилар ой якунлана боргани сари дарсдан қолиб, «Пулини қандай тўлаймиз. Ота-онамга қийин бўлмасмикан?» деган ташвишга туша бошлар экан. Ҳатто баъзилари шундай фикрда машғулотлардан четлаша бошлабди. Кейин ўзим маблаг борасида сўз очганимдан пушаймон бўлдим. Ана шу тўғарақ машғулотлари натижасида ўқувчиларимнинг дарсларни ўзлаштириш самарадорлиги 76—82 фоиз-

гача кўтарилди. Меҳнатларим эътиборга олиниб, яхшигина устама ҳақ белгиланди. Билдимки, «Хизмат ҳақим фалон сўм бўлиши керак...» деган мақсад билан эмас, сидқидилдан меҳнат қилавериш керак экан. Бунинг мукофотини, албатта, оласиз. Қолаверса, эришилган муваффақиятлар эртага турли лойиҳаларда қатнашишингиз учун замин яратади. Негакки, ҳеч қачон хаёлий орзулар билан бундай танловларга томон йўл тополмайсиз. Дейлик, менинг 2009 йили «Таълим секторини ривожлантириш дастури»даги иштироким ўқув хонамиздаги ажойиб кутубхонанинг яратилишига имконият яратди. Ундаги манбаларсиз мен тўғарақ машғулотлари, дарсларим са-

ни тинглаб, тушуниш машғулотлари чоғи дафтарга ёзилган янги сўзларни текшириш жараёнида ана шу «мева»ларга хатоларини англашга белгилар қўяман ва ҳар бир белги «қурт» саналади. Ўқувчи ана шу «зараркунанда»ларни йўқотиш учун хатосини топиб ўчиради ва қаламда қайта тўғри-лаб қўяди.

Санобар инглиз тили фани ўтила бошланган куйи синфларданок билимлар пойдевори мустаҳкам бўлишига, ўқувчи толиқмасдан, зерикмасдан мавзуларни ўзлаштириши ва навбатдаги дарсни интиқлик билан кутишига катта аҳамият беради.

— Латин алифбосига ўтганимиз бизга бу ўринда жуда қўл келади, — суҳбатимизни давом эттиради у.

ДУНЁГА ЧИҚҚИН-У, ЎЗИНГ БЎЛИБ ҚОП!

марадорлигига эришишим мушкул эди.

Санобар тўғарақ аъзоларни жамлашда «аълочи» дея танилганларга эмас, айнан тил ўрганишга қизиққанларга эътибор қаратди. Натижада инглиз тилига қизиқиш мактабдан оилаларга кўчди. Ота-оналар билан яқиндан танишди, уларни машғулотларига таклиф этди. Ўқувчилар уйдан «кучоқ-кучоқ» саволлар билан келиб, машғулотларга жон киргизадиган бўлишди. Бугун тўғарақда фаол ўғил-қизлар кун келиб эркин иқтисодий зонадаги масъулиятли вазибаларда меҳнат қилишлари мумкин. Машғулотларда ана шу жиҳатлар ҳам назаридан четда қолмайди.

Тузатишга имкон бермоқ санъати ёки «олмага тушган қурт»


Биз ўзига хос тажрибаси билан ўртоқлашаётганимиз Санобар Махатова Навоий вилояти Хатирчи туманидаги 7-мактабда фаолият юритади. Ўқувчиларининг кўнглини аяб, уларга меҳр, ҳурмат билан муносабатда бўладиган муаллимнинг иш услубига ҳам ана шундай гўзал муомала маданияти синган.

— Бола руҳиятига ўз хатосини тузата олмаслик ҳадиғи жуда салбий таъсир кўрсатади, — дейди у. — Шунинг учун тўғарақ машғулотларида ўқувчиларимни қаламда ишлашга ўргатганман. Уларнинг дафтарлари хошиясига олма расмлари ёпиштирилган. Диктантлар-

— Биринчи дарсимизда «Болажонлар, бу харфларни танийсиз-а?» деган маънодаги саволимга бараварига «Ҳа» дея жавоб беришади. Ана шу «танишлик» ишонч билан фанимиз оламига кириб кетишга йўл очади. Синфдаги ўқувчиларнинг билим даражасини хаёлан аъло, ўртамиёна, бўш ўзлаштирувчи дея учга ажратиш мумкин. Агар дарсни аълочилар тезлиги билан ташкил этсангиз, учинчи тоифадагилар сонининг ортшига имкон яратасиз. Яхшиси, меъёрни ўрта поғонага қараб белгилаган маъқул, менимча. Хонамиз компьютерлаштирилган. Аълочиларим энг яқин ёрдамчиларимга айланишган. Улар ана шу аснода билимларини янада мустаҳкамлаб, ўзлаштиришда қийналаётган синфдошларини руҳлантира боришади. Дарсимиз давомида кимдир гапириб, кимдир тингламайди, аксинча, ҳамма «ишлайди». Бунга эришиш учун эса ўқитувчи ҳар бир сабоғига олдиндан катта ҳозирлик кўриши, кўргазмани воситалардан ўрнида ва самарали фойдаланиш тизимини яратиб олган бўлиши керак.

Дарсда тарбиявий мақсад эътибордан четда қолмадими?

Бугун қайсики жабҳада меҳнат қилманг, касб-корингиз доирасида муваффақият қозонмоқни истасангиз, албатта, ахборот-коммуникация технологиялари ва хорижий тилларни кунт билан ўрганмоғингиз шарт.



— Озгина вақтим бўлди-ми, интернет тармоғига улланман, — дейди бу хусусда гап кетганда Санобар Махатова. — Шунда амин бўламанки, барча соҳалар тараққиётига доир тажрибалар, илмий-амалий кўрсатмалар, маълумот ва янгиликлар инглиз тилида атрофлича баён этилган бўлади. Шу тилни ўрганиш орқали бугун ўзбек боғбони, дейлик, япониялик олимнинг тадқиқотларидан фойдаланиб илмий-амалий кўрсатмаларга хурмат ва муҳаббат ҳисси жону танимизга сингиб кетган бўлмоғи шарт. Бу ўринда биз — хорижий тил фани ўқитувчиларининг алоҳида ҳиссамиз бўлмоғи керак, деб биламан. Чунки фарзандларимизга чет тилларини ўргатиш баробарида уларни ўша миллат маданияти, урф-одати ва анъаналаридан ҳам бохабар этамиз. Лекин бу бохабарлик ўзликни унутишдек йўқотиш томон бошламаслиги зарур.

Санобар ҳар бир дарсининг таълими мақсадини кўяр экан, тарбиявий мақ-

садга эришиш режасини ҳам тузиб олади. Масалан, «Миллий кийимлар» мавзусига доир янги билимлар ўқувчиларга етказилгач, киёслаш усулидан кенг фойдаланади. Фикрларини илмий ва амалий жиҳатдан далиллаб беради: очик-сочиқ кийиниш биологик ва руҳий таъсирга эга бўлиб, хотиранинг сусайиши, фикрнинг тарқоқлиги, мақсаддан чалғитиш каби салбий ҳолатларни вужудга келтиради. Инсон қанчалик одми кийиниб, камтарин бўлса, фикрлари теран, ўзи вазмин бўла бориши ҳам кўп бора кузатилган. Ўқитувчи дарсини қанчалик маҳорат билан ташкил этмасин, синфда бир ўқувчининг ялтир-юлтур тақинчоқларда ёки очик-сочиқ либосларда ўтиришига йўл қўйилса, таълими, тарбиявий мақсадларга путур етмай қолмайди. Нафақат мактабда, ҳар бир жабҳада ижодий меҳнат давом этади. Шундай қайноқ жараёнда кимнингдир ўзини шарқона ҳаё, ибо, муомалаю маданиятдан йироқ тутиши жамoadан бирдамлик, бараканинг йироқлай бошлашига сабаб бўлмайди, дея ҳеч ким кафолат бера олмайди.

... Санобар Махатованинг изланишлари, муваффақиятлари у билан бир жамоода меҳнат қилаётган яна беш нафар чет тили ўқитувчиси учун тажриба мактаби вазифасини ўтамоқда. Улар яқинда туман микёсида ҳамкасблари учун илмий-услубий семинарлар ташкил этиб беришди. Дарсларни кузатган ўқитувчилар ўнлаб саволларига жавоб олишди. Энди улар вилоят доирасида ана шундай анжуманлар уюштиришмоқчи. Мақсад эса ягона — нафақат ўзлари, балки барча устоз-мураббийларнинг самарали фаолият юритишларига кўмаклашидир.

Yangiliklarda yurt nafasi



❖ **Пойтахтимизнинг Шайхонтохур туманидаги "Илгор" маҳалласида меҳнат ярмаркаси бўлиб ўтди. Тадбирда тумандаги ўнга яқин корхона, ташкилот ва муассаса бўш иш ўринларини тақдир этди.**

Бугун туманда қирқ тўққиз маҳалла ва тўққизта касб-хунар коллежи фаолият юритмоқда. Аҳоли ва коллеж бигирувчилари бандлигини таъминлашда бўш иш ўринлари ярмаркалари муҳим омил бўлаётди.

Олти минг нафардан зиёд аҳоли истиқомат қиладиган "Илгор" маҳалласида кейинги йилларда бир қатор янги тикувчилик корхоналари ва маиший хизмат кўрсатиш тармоқлари ишга туширилди. Ўнга яқин оилавий тадбиркорлик субъекти аҳолига турли йўналишда хизмат кўрсатмоқда.

— Меҳнат ярмаркасида туманимиздаги 1-шаҳар шифонасида ишлаш учун йўланма олдим, — дейди Шайхонтохур тиббиёт коллежи ўқувчиси Мафтуна Набиева. — Келгусида ўз билим ва тажрибамни янада бойитиб, олий ўқув юртига ўқишга кириш, етук шифокор бўлишни мақсад қилганман.

Бундай ярмаркалар тумanning бошқа маҳаллаларида ҳам бўлиб ўтмоқда.

❖ **Навоийда Ўзбекистон Республикаси Президентининг соврини учун аънанавий тарзда ўтказиб келинаётган "Ташаббус" кўрик-танловининг шаҳар босқичи ниҳоясига етди.**

Ишбилармон фермер ва тадбиркорлар, уста хунармандлари ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, уларнинг азгу интилишларини рўйбга чиқаришда муҳим аҳамият касб этаётган мазкур танловда қарийб 30 нафар тадбиркор ҳамда кўли гул хунарманд ўз маҳсулотлари билан иштирок этди.

— Юртимизда биз, тадбиркорлар учун яратилган имтиёз ва имкониятлар иқтисодий ислохотларда фаол иштирок этишимиз ҳамда мамлакат тараққиётига муносиб ҳисса қўлишимизда муҳим омил бўлаётди, — дейди "Navoiy Fayz Mebel" ишлаб чиқариш корхонаси раҳбари Азамат Хожиев. — Айни пайтда корхонамизда таълим муассасалари, меҳмонхона ва офислар учун замонавий мебель жиҳозлари ишлаб чиқарилмоқда.

Танлов якунида турли номинациялар бўйича голиблар аниқланиб, уларга вилоят босқичида қатнашиш учун йўланмалар берилди.

❖ **Нукус шаҳрида оилавий корхоналарни ривожлантиришнинг самараларига бағишланган давра суҳбати бўлиб ўтди.**

Ўзбекистон Либерал-демократик партиясининг Қорақалпоғистон Республикаси кенгаши, "Маҳалла" хайрия жамоат фонди, Ўзбекистон Савдо-саноат палатаси билан ҳамкорликда ташкил этилган ушбу тадбирда тегишли вазирилик ва идоралар, банк-молия муассасалари, жамоат ташкилотлари вакиллари, тадбиркорлар, оммавий ахборот воситалари ходимлари иштирок этди.

Тадбирда мазкур қонуни ҳаётга таъбиқ этишнинг самарали усуллари, оилавий бизнесни янада ривожлантириш, ёшларни иш билан таъминлаш, аҳолининг тадбиркорликка оид ҳуқуқий билимларини юксалтириш юзасидан фикр алмашилди.

Тадбир доирасида оилавий корхоналар томонидан ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар кўргазмаси намойиш этилди.

❖ **Жиззахда Наврўз байрамига бағишланган "Баҳор тароналари" вилоят кўрик-танлови бўлиб ўтди. Бу йилги кўрик-танловда барча туманлардан 300 нафарга яқин ёш истеъод соҳиблари иштирок этди.**

Тўрт йўналиш бўйича ўтказилган танловда бадий жамоалар ва ҳаваскор ижрочиларнинг чиқишларидаги оҳангдорлик ва жозиба, соз ва овоз уйғунлиги ҳамда сахна маданияти ҳайбат аъзолари томонидан қатъий мезонлар асосида баҳоланди.

Яқунда "Энг яхши ўлан" ва "Наврўз ҳақида энг яхши кўшиқ" йўналишлари бўйича Пахтакор тумани маданият ва спорт ишлари бўлими қошидаги бадий жамоа вакиллари биринчи ўринга лойиқ топилди. "Энг яхши эстрада ижрочилиги" йўналиши бўйича биринчи ўрин Баҳмал тумани маданият ва спорт ишлари бўлими ходими Баҳодир Мўминовга насиб этди. Жиззах туманининг "Зебохон" фольклор-этнографик жамоаси "Энг яхши фольклор жамоа" йўналишида голибликни қўлга киритди.

Ўза ва махсус мухбирларимиз йўллаган материаллар асосида тайёрланди.

Меҳнат муҳофазаси муҳим

Ҳамза туманидаги таълим муассасалари раҳбарлари ва касба уюшмалари раислари иштирокида "Меҳнатни муҳофаза қилиш ҳақида"ги қонуннинг бажарилиши юзасидан давра суҳбати ўтказилди.

Таълим, фан ва маданият ходимлари касба уюшмаси Ҳамза туман кенгаши томонидан уюштирилган тадбирда ушбу қонуннинг бажарилиши ва қонуности ҳужжатларининг

ҳар бир иш берувчи томонидан ижро этилишини таъминлаш борасидаги чора-тадбирлар хусусида фикр юритилди.

Таълим муассасаларида ходимлар хавфсизлигини таъминлаш кафолатлари, шу жумладан, техника хавфсизлиги бўйича ҳар бир таълим муассасасида амалга оширилаётган ишлар ҳам муҳокама этилди.

Фируза АСЛАНОВА

Оила - муқаддас

Бухоро тиббиёт коллежида "Эрта турмуш қуришнинг салбий оқибатлари" мавзусида давра суҳбати бўлиб ўтди. Тадбирда 250 нафардан ортиқ ўқувчи ва ота-оналар иштирок этди.

Тадбирда сўзга чиққанлар

оиланинг муқаддаслиги аж-додлардан мерос қадрият экани, унинг мустаҳкамлигини таъминлаш ҳар бир инсоннинг бурчи ҳисобланишини ҳаётини мисоллар асосида тушунтириб беришди. Турмуш қуришда никоҳ қонунларини чуқур англаб етиш, бу бора-

да ота-оналар ва ёшларнинг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш зарурлиги алоҳида таъкидланди. Иштирокчилар тадбир давомида мутахассислардан ўзларини қизиқтирган саволларга жавоб олишди.

Сора ТОШЕВА,
"Ma'rifat" мухбири

Кўмир саноати ривожланмоқда

Миллий матбуот марказида "Ўзбек-кўмир" очик акциядорлик жамияти томонидан "Кўмир саноатини техника ва технологик жиҳатдан янгилаш юзасидан амалга оширилаётган ишлар" мавзусида матбуот анжумани бўлиб ўтди. Унда сўзга чиққанлар мамлакатимизда кўмир қазиб олиш ишларининг йиллик ривожланиш босқичлари ва жараёндаги янгиланган хусусида фикр билдирдилар.

Мамлакатимиз ер ости қазилма бойликлари захирасига эга. Хусусан, кўмир саноатига бўлган эҳтиёж қўндан-қўнга ортиб бормоқда. 2012 йилнинг 1 ноябрь ҳолатига кўра,

республика бўйича бюджет ташкилотларига 298 минг 500 тонна кўмир етказиб берилди. Шунингдек, 595 минг тонна кўмир маҳсуло-ти аҳолига сотилди. Шунини таъкидлаш лозимки, аҳоли ва ташкилотларнинг эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда, кўмир қазиб олиш ва сотиш бўйича бир қатор қулайликлар яре-тилган. Чекка ҳудудлардаги таълим муассасаларини иссиқлик энергияси, хусусан, кўмир билан таъминлашда эса маҳаллий ҳокимликлар, ўзини-ўзи бошқариш органлари ва таълим муассасаларининг ўзаро ҳамкорлигини кенг йўлга қўйиш ишлари ҳам муҳокама этилди.

Н.ХОЛМЕТОВА

Эҳтиромга муносиб зотлар эъзозда

Баҳорнинг илк байрами Тошкент давлат техника университети қошидаги 5-академик лицейда ҳам кўтаринки кайфиятда нишонланди. Тадбир аввалида фаол ўқувчилар ёд айтган шеърларда она Ватан, баҳор, аёл мавзулари асосий ўрин эгаллади.

— Бугун юртимизда хотин-қизларга юксак ҳурмат-эҳтиром кўрсатилаётганига барча таълим муассасаларида гувоҳ бўлиш мумкин, — дейди академик лицей директори Жамолiddин Рустамова. — Мамлакатимизда эришилаётган ҳар бир муваффақиятда аёлларнинг муносиб ҳиссаси борлигини ҳис этиб тураемиз. Жа-

моамизда ҳам аксарият педидагогларни аёллар ташкил этади. Бугунги байрам эса уларга эҳтиромнинг бир кўринишидир.

Тантанали тадбир ўқувчиларнинг табрикномалари, сахна кўринишлари билан давом эттирилди.

Ноила МАРУПОВА,
академик лицей
ўқитувчиси

Тошкент темирйўл муҳандислари институтининг 8 март — Халқаро хотин-қизлар кунига бағишлаб ўтказилган анжуманда аёлларимизнинг жамиятдаги нуфузи янада ортиб бораётгани хусусида сўз борди.

Институт ректори М.Расулов ушбу таълим даргоҳида фаолият олиб бораётган хотин-қиз-

ларни айём билан қизгин қутлади. Шундан сўнг, талабалар томонидан тайёрланган сахна чиқишлари куй-қўшиқлар ижро этилди. Байрам тадбири йилгиланларда катта таассурот қолдирди.

Дилфуза НАЗИРОВА,
ТТМИнинг "Маънавият ва маърифат"
бўлими услубчиси

8 март — Халқаро хотин-қизлар куни юртимизнинг барча таълим муассасаларида қизгин нишонланди. Чилонзор туманидаги 475-мактабга таълим муассасасида бўлиб ўтган "Она-жонлар — меҳрибонлар байрами" бадий кечаси кузатиб бунга амин бўлди.

Болалар ижросидаги шўх-шўх куй-қўшиқ, рақс ва шеърлар тадбирга кўтаринки кайфият бахш этди.

— Муассасамизда 260 нафар бола таълим-тарбия олади, — дейди тарбиячи Муқаддас Йўлдошева. — Уларнинг ҳаммаси бошда фаолият юритаётган рақс, шахмат-шашка,



бадий гимнастика, мусиқа тўғаракларига қамраб олинган. Турли спорт ва бадий тадбирлар ўтказишда ушбу тўғаракларнинг аҳамияти катта бўлмоқда. Тадбир давомидаги

кўргазмали чиқишлар ва сахна кўринишлари тўғаракларнинг фаол аъзолари томонидан катта қизиқиш билан ижро этилди.

Б.РИЗОҚУЛОВ олган сурат.

2005 йилдан бери мактабда директорман. Утган давр мобайнида рахбар сифатида муассасада маънавий-маърифий, ижодий мухитни соғломлаштиришга оид ҳатто тажрибаларни синаб кўрдик. Шулардан бири «Ўқувчилар ўртасида соф рақобат мухитини қандай юзага келтириш мумкин?» деган савол атрофида кечди. Ахир, директор мактабда ёшларнинг таълим-тарбияси учун масъул бўлган шахс. Шу боис муассасадаги таълимий мухитни барқарорлаштиришда бу жиҳатни назардан четда қолдириб бўлмайди.

Мактабимиз дарвозаси олдидаги майдон эътиборсизлик туяли атрофдаги аҳоли томонидан ташланган маиший чикиндиларга тўлиб ётарди. Ҳатто чикиндилар уюмидан ўтиб бўлмай қолгани учун мактаб ҳовлисига орқа тарафдаги эшикдан айланиб киришга тўғри келарди. Бундай оғир санитар-гигиеник ҳолатда соғлом маънавий мухит ҳақида гапиришга тортинасан киши. Маҳалла фаоллари ва кўнгилчилар ёрдамига таяниб, худудда тозалик ишларини бошладик. Бўшаган майдонни кўкаламзорлаштириб, гул ва дархат кўчатлари ўтказдик. Ўқувчилик ўқитувчилар қалбига кўланка ташлаб турган манзара йўқолган, дилларга қандайдир ёруғлик, нур энгандай бўлди.

Сўнг бевоисита таълим ва тарбия самарадорлигини таъминлашга хизмат қиладиган ўзгаришларни амалга оширишга киришдик. Мактаб кўп қаватли уйлари яқин жойлашган. Уларда яшовчи ўқувчиларнинг давомати ва паст ўзлаштириши тенгдошларига ҳам салбий таъсир ўтказаятган эди. Хўш, нега бундай? Чунки кўп қаватли уйда истиқомат қилувчиларнинг томорқаси йўқ, чорва билан шуғулланмайди. Демак, болалар дарсдан бўш вақтини фойдали меҳнатга сарфламайди, балки кўчада бекордан-бекор ўтказаяди. Бу эса нохуш ҳолатларни келтириб чиқармаслигига ҳеч ким кафолат бера олмайди.

Кўп қаватли уйларида яшовчи аҳоли фарзандларини рўйхатга олиб, одоб-ахлоқ, дарсларни ўзлаштиришини алоҳида назорат қила бошладик. Синф раҳбарларига шу ўқувчиларнинг фан ва спорт тўғрисидаги қизиқишини ўрганиб чиқиш тавсия этилди. Режа бўйича улар синфдан ташқари машғулотларга жалб этилиши лозим эди. Бунинг учун ота-оналар, маҳалла фаол-

ларини ҳамкорликка қорлаб, тўғраракларни керакли жиҳозлар билан таъминладик, фаолиятини жонлантирдик. Ҳозир 22 тўғраракка 958 ўқувчидан 762 нафари қатнамоқда. Болалар дарсдан кейин яна мактабга — ўзлари аъзо бўлган тўғраракка

майdonи ҳам ўғил-қизлар ихтиёрида. Уларда шаҳардаги болалар ва ўсмирлар спорт мактаби мураббийлари мунтазам равишда тадбирлар ўтказиб туришади. Бунинг бизга фойдали жиҳатлари кўп. Аввало, ўқувчиларимиз ушбу спорт мусобақаларида иштирок этиш имконига эга бўлади. Қолаверса, нуфузли беллашувни томоша қилган болалар қалбидан спортга меҳр ортади. Бунинг натижаси ўларок, 50 нафарга яқин ўқувчимиз доимий равишда вилоят ва республика мусобақаларида ўз маҳоратини намойиш этиб келмоқда. Собиқ ўқувчиларимиз Сай-

лашган маҳаллада яшайдиган ўқувчиларнинг дарсдан бўш вақтини мазмунли ўтказиш мақсадида хунармандлар, тикувчилик ва тўқувчилик, дурадгорлик шеҳи ташкил этилган. Болалар машғулотлардан кейин устоз-шогирд анъанаси асосида хунар ўрганишади.

Фаолиятимнинг илк йилларида мактаб ҳолати билан танишар эканман, айрим ўқитувчиларнинг ишга юзаси муносабати, машғулотларни зерикарли тарзда ўтиши мени ташвишга солган эди. Вазиятни ўнглаш учун муаммо сабабларини обдон ўргандик. Педагоглар билан суҳбатдан аён бўлдики, мак-

Мактаб муҳити

ган ҳолда ташкил этилган. Мактабда амалга оширилган ишларнинг ташкилотчиси ва ижрочиси бўлган устоз-мураббийларнинг касбий маҳорати ўсмоқда. 1995 йили «Йилнинг энг яхши фан ўқитувчиси» кўрик-танловида математика ўқитувчиси Саодат Нурматова иштирок этганини ҳисобга олмасак, кейинги йилларда педагоглардан ҳеч бири нуфузли тадбирларда деярли қатнашмаган. 2007 йилдан бошлаб эса республика миқёсидаги бу нуфузли танловда 10 нафар ўқитувчимиз турли фанлар йўналишида иштирок этиб, совринли ўринларни кўлга киритди. Интизор Қаландарова, Ойназин Исоқова, Дилбар Ахунова, Роза Харулинова, Мавжуда Мансурова, Шарифа Каримова каби ҳамкасбаримиз шулар жумласидан.

Жамоада бирор ютуқнинг кўлга киритилиши ёки, аксинча, тарбиядаги кичик бўшлиқ ҳам раҳбар фаолиятига, муассасада бошқарув қай тарзда ташкил этилганига боғлиқ, деб ўйлайман. Ўқувчиларнинг таълим-тарбияси биз учун биринчи ўриндаги масала экан, бу синф раҳбарлари ва фан ўқитувчилари фаолиятини мунтазам назорат қилиб боришга тақозо этади. Муассасамизда ўтказиб келинаётган «Энг яхши ноънавий дарс», «Энг ибратли синф раҳбари», «Тўғраракларда қатнашувчи энг фаол синф», «Энг қизиқарли тўғрарак», «Энг тарбияли, интизомли синф», «Энг шижоатли ёш ўқитувчи» каби кўрик-танловлар таъсирида ҳар бир педагог янгилик яратишга, таълим ва тарбияни мазмунан бойитишга интиломоқда.

Базан мактабнинг бош мақсади таълимми ёки тарбия деган гап қўлоққа чалинади. Менимча, бу саволга ўрин йўқ. Таълим ўқувчининг тафаккурини кенгайтирса, тарбия шахснинг маънавий олами бойитади. Шундай экан, юксак маънавиятли ва интеллектуал салоҳиятли ёшларни вояга етказишда ушбу икки омилнинг ҳамбарчаслиги жуда муҳим.

Эргаш ЖАБОРОВ,
Жиззах шаҳридаги
7-умумтаълим
мактаби директори

ЭРИШИЛГАН ҲАР БИР ЮТУҚ

бошқарув қай тарзда ташкил этилганига боғлиқ

шошилаётганини кўриб қувонаман. Таълим ва тарбияни уйғун олиб бораётганимиз самарасини ҳис этаман. Физика тўғрисида ўқувчилар «Архимед ҳақида афсона» мавзусида қизгин баҳслашаётган бўлади, кимё тўғрисида «Моддаларни тозалаш усуллари», «Молекулаларнинг мавжудлигини тасдиқлайдиган тажрибалар» мавзусидаги лаборатория машғулотлари устидан чиқаман, математика тўғрисида эса ўғил-қизларнинг масалаларини ечиш усуллари юзасидан савол-жавоб ўтказаятганини кўриб кўнглим равшан тартади.

Ёшлар ўртасида мусиқа ва санъат, спорт тўғрисидаги қизиқиш катта. «Наво» тўғрисида ўғил-қизлар ноталар билан танишиб, қолчуларни чалишни, ўзбек ва жаҳон рақсларини ўрганишмоқда. Техника тўғрисида эса ҳар бир машғулот мўъжизага айланапти. Ўқувчиларнинг радио, телевидение, компьютер билан ишлаш, уларни таъмирлаш сирларини катта иштиёқ билан ўрганаётгани эътиборга лойиқ, «Сехрли игна» тўғрисида аъзоларнинг каштачиликка қўли анча келиб қолди. Спорт зали ва футбол

ёра Ҳожиматова турон кураши бўйича 2 карра Осиед чемпиони бўлган. Шаҳзод Усмонов эса спортнинг шу тури бўйича Ўзбекистон чемпиони, Осиед биринчилиги иштирокчиси.

Ўқувчиларнинг дарсдан бўш вақтини мазмунли ўтказиш, тарбияни мустақамлаш натижасида пешма-пеш ютуқларни кўлга киритаяпти. Мисол учун, кейинги пайтларда ўғил-қизларимиз фанлар олимпиадаси ва билимлар беллашувида фақат совринли ўринлар учун курашмоқда. Утган йили 3 нафар ўқувчи билимлар беллашувининг республика босқичи ғолиби бўлди. Улар кўрсатган натижа мактабимиз нуфузини ошириб, рейтинг кўрсаткичи бўйича мамлакат миқёсида 48-ўринга кўтарилди. Биз бу натижани жорий йилда ҳам қўлдан бермоқчи эмасмиз. Айна кунда иқтидорли ўқувчилардан 4 нафари билимлар беллашуви, 1 нафари фанлар олимпиадасининг вилоят босқичида қатнашишга пухта ҳозирлик кўрмоқда.

Ютуқлар замирида ота-оналар ва маҳалла билан ҳамкорликнинг алоҳида ўрни бор. Мактабимиз жой-

табининг моддий-техник базаси анча ночор. Дарс ва машғулотларнинг техника воситаларисиз, қўргазмали курулларсиз ўтказилиши ўқитувчи ва ўқувчиларни қаноатлантирмасди. Бугунги шиддаткор даврда эскириб қараш ва замон талабларига жавоб бермайдиган ўқув куруллари билан муваффақиятга эришиб бўлмайди. Шу маънода мактабимиз капитал таъмирдан чиқарилиб, барча зарур жиҳозлар билан таъминлангани айна мудоа бўлди. Иситиш тизими яхшиланиб, мактаб бўйича 15 жойга иситиш қозонхоналари ўрнатилди. Электр, сув ва газ таъминоти узлуксиз йўлга қўйилди. Мавжуд 41та ўқув хонаси, спорт ва мажлислар зали, 4та маъмурий хона, 3та лаборатория хонаси киши фаслида ҳам мўътадил иситиш имконига эга бўлди. Айна пайтда мактаб мулкни кўз қорачигидек асраб-авайлаб, улардан оқилона фойдаланишга ҳаракат қилаяпти.

Энг муҳими, ўқитувчилар бу ўзгаришларга бефарқ қарамади. Дарс ва машғулотларни янги педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларидан фойдалан-

ТАРБИЯ — НОЗИК ИШ



Пойтахтимиздаги 97-мактабда педагог-муаллималар ва ўқувчи-қизлар иштирокида «Вояга етмаган қизлар тарбияси ва эрта турмушга чиқишнинг салбий оқибатлари» мавзусида суҳбат-дарс ташкил этилди.

Дарсда тажрибали оналар ҳам иштирок этиб фарзанд, айниқса, қиз бола тарбиясида эътибор қаратиладиган муҳим жиҳатлар, эрта турмушга беришнинг оқибатлари ҳақида ёшларга сўзлаб бердилар. Ўқувчи-қизлар томонидан оила, тарбия, обод турмуш мавзуларида баҳру-байт ўтказилди.

Дарс сўнгиде мактабнинг «Нафосат» хотин-қизлар клуби қизлари томонидан «Қиз бола — гулдэк нозик», «Эрта турмуш фожиаси», «Гейхвандлик—заҳри қотил», мавзуларида сахна кўринишлари намойиш этилди.

МУХБИРИМИЗ
Б.РИЗОКУЛОВ олган суратлар.




O'quvchilar fanlarni chuqur o'zlashtirishi, avvalo, pedagogning darsni qanday tashkil etishi, berayotgan nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini ko'rsata olishiga bog'liq. Ayniqsa, kimyo faniga qiziqishlarini oshirishda yoshlarni amaliy mashg'ulotlarga jalb qilish kuni foyda. Misol uchun, ko'z oldida o'zi har kuni iste'mol qiladigan suvning kislorod va vodorod gazlariga ajralishi hech bir bolani befarq qoldirmaydi. Bu jarayonni esa u elektr toki yordamida o'z qo'li bilan bajarganda, darsning faol a'zosiga aylanishi tabiiy. Ushbu mulohazadan kelib chiqib, quyida "ELXOLDING" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi metodistlari tomonidan kimyo fani o'qituvchilariga metodik ko'mak sifatida, 7-sinfra uchun "Suv va uning tarkibiy qismi. Suvni tarkibiy qismlarga ajratish" mavzusidagi laboratoriya mashg'ulotining ko'rgazmali tajriba namunasi taqdim etiladi.

Suvni tarkibiy qismlarga ajratishning usullari ko'p. Masalan, elektrokimyoviy usul. Volta ustunlari kashf qilinch, o'tkazilgan dastlabki elektrokimyoviy tajribalar olimlarda katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, ingliz olimi X. Devining elektrokimyoviy hodisalarni maxsus o'rganish ishlari amaliyotda muhim ahamiyat kasb etdi. Olim o'z tajribalarida o'sha davrda hukmron "Suv elektrolizi vaqtida qutblarning birida kislotada, ikkinchisida esa asos hosil bo'ladi" degan qarashning asossiz ekanini isbotladi. U elektroliz vaqtida olinadigan kislotada va asoslar keyingi keladigan ikkilamchi reaksiyalar mahsuloti ekanini ko'rsatib berdi. Suvni tarkibiy qismlarga ajratish bo'yicha tajribalarni har xil sharoitlarda (shisha, agat va tilla idishlarda; havoda va vodorod atmosferasida) takrorlab, chuchuk suv elektroliz vaqtida faqat kislorod va vodorodga ajralishini, bunda hosil bo'luvchi vodorod hajmi kislorod hajmidan ikki barobar ortiqligini isbotladi. U yana kimyoviy toza suv elektrolizga uchrasmaligi va elektr toki faqat bog'lanishlarni parchalashi, lekin hech qanday yangi bog'lanishlarni hosil qilmasligini aniqladi.


Biz quyida suvni tarkibiy qism — kislorod va vodorodga elektr toki yordamida ajratish usuli, ya'ni elektroliz usuli bilan tanishamiz.

Elektroliz — eritmalar yoki suyuqlantirilgan elektrolitlar orqali o'zgarma elektr toki o'tkazilganda kechadigan kimyoviy jarayonlar majmuidir. Elektroliz vaqtida kimyoviy (oksidlanish-qaytarilish) reaksiya elektr toki hisobiga sodir bo'ladi. Suvning o'zi elektrolit emasligi sababli biz elektrolizni natriy gidrooksid eritmasida o'tkazamiz. Bunda metallar faolligi qatoriga muvofiq katodda natriy emas, balki vodorod ajralib chiqadi.


Elektrolitda kechayotgan jarayonni quyidagicha tavsiflash mumkin:




Katodda: katoddan elektronlar qabul qilib olinib, vodorod ionlari qaytariladi:



Anodda: gidroksid-ionlar anodga elektronlar berib oksidlanadi:



Yakuniy:




Ushbu ko'rgazmali tajribani namoyish qilish uchun bizga elektr toki bilan tajribalar o'tkazish asbobi, shisha stakancha, shisha tayoqcha, polipropilen spatel, hajmi 100 ml. bo'lgan o'lchov silindri, elektron tarozi, natriy gidrooksid (NaOH) kerak bo'ladi.

Elektr toki bilan tajribalar o'tkazish asbobining fotosurati hamda tashqi ko'rinishi 1 va 2-raslarda keltirilgan. Asbob quyidagi asosiy qismlardan tuzilgan: 2ta po'lat sterjenli elektrodi (2) bo'lgan idish (1), markaziy idish (3), yon idishlar (4). Asbob ushbu

qismlarining barchasi organik shishadan yasalgan (5) panelga qotirilgan va bir-biri bilan PVX naylar hamda uch qismli naylar bilan ulangan. Panel laboratoriya shtativiga (6) qotiriladi. Shuningdek, yetkazib berish jamlanmasiga shisha stakanchalar, ta'minlash manbai (7) va ulash simlari (8) kiradi.


ulanadi. Ikkinchi ulash simining bir uchi (-) katodga, ikkinchi uchi ta'minlash manbaining "-" klemmasiga ulanadi. Uchinchi sim zanjirni berkitadi, uning bir uchini milliampermetrning "+" klemmasiga, ikkinchi uchi ta'minlash manbaining "+" klemmasiga ulanadi. Asbob yig'ib bo'linganidan so'ng uning germetikligi tekshiriladi.



2-rasm

O'QUVCHI KO'Z O'NGIDA

suv gazga aylanadi



1-rasm

Mashg'ulot paytida texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qiling:

Shisha (probirkalar, kolbalar, stakanlar, naylar) bilan ishlaganda hamma vaqt yodda tuting: shisha — judayam mo'rt va oson sinib ketadi. Shuning uchun idishni shtativga mahkamlashda haddan ziyod qisib yubormang; probirkani yoki kolbani tiqin bilan yopishda ortiqcha kuchlanish bermang; ularni bo'g'zidan ushlang. Ishqorlar eritmalarini bilan ishlaganda ehtiyot bo'ling. Agar ishqor teringizga tushsa, vahimaga tushmang, darhol oqar suvda yuvib tashlang. Bu tajribani, albatta, himoya ko'zoynagida bajaring!


Tajriba o'kazishdan oldin 5 foizli natriy gidroksid eritmasi (elektrolit) tayyorlab olinadi.

Ikki ta po'lat elektrodi asbob panelidagi (1) idishga o'rnatiladi. Ular 3-rasmda tasvirlangan elektr sxemaga muvofiq ta'minlash manbaiga ulanadi. Buning uchun ulash simining bir uchi (+) anodga, ikkinchi uchi esa asbob paneliga o'rnatilgan milliampermetrning (multimetrning) "-" klemmasiga



3-rasm

Endi markaziy idishga elektrolit eritmasi quyiladi. Yon idishlarni elektrolit bilan to'ldirish uchun mazkur idishlar sharikli tiqinlari (9) qisiladi, ulardagi havo chiqarib yuboriladi, bunda eritma idishning yuqori chiqarimasigacha ko'tarilishi kerak (4-rasm).



4-rasm

Asbob ishlashga tayyor bo'lganidan so'ng tajriba o'tkazishga kirishish mumkin.


Milliampermetr ko'rsatkichi DC 500 mAga qo'yiladi. Ta'minlash manbai kent shitidan ta'minlanuvchi o'zgaruvchan tokning 42 V li tarmog'iga ulanadi, bunda milliampermetrning indikator yorug'lik diodi ravshan yonadi. Zanjir orqali tok o'ta boshlaydi

Sinab ko'ring

va elektrodli idishda suvning elektrolitik parchalanishi sodir bo'ladi.

Markaziy idishda eritma sathi ko'tarila boshlaydi, shu onning o'zida yon idishlarda eritma sathining pasayishi kuzatiladi: anodda kislorod, katodda vodorod hosil bo'ladi.

Bunda vodorod kislorodga qaraganda ikki marta ko'p hosil bo'lganiga ahamiyat berish kerak (5-rasm).



5-rasm

Vodorod yig'ilgan yon idishning yuqori chiqarimasining ingichka uchiga P-9 qalin devorli probirka kiradigan qilib yaqinlashtiriladi va sharchali tiqin 10–15 sekund davomida qisib turiladi. Bunda idishdagi suv sathi ko'tariladi. Keyin yon idishning yuqori chiqarimasidan probirkani to'nkarmasdan chiqarib olinadi va uning og'ziga yonib turgan gugurt cho'pi (ehtiyotlik bilan) yaqinlashtiriladi. Bunda probirkada yig'ilgan vodorod paqillab yonadi. Kislorod to'plangan yon idish yuqori chiqarimasining ingichka uchiga P-9 qalin devorli probirkani xuddi yuqoridagidek yaqinlashtiriladi va sharchali tiqin 10–15 sekund davomida qisib turiladi. Bunda idishdagi suv sathi ko'tariladi. Probirkani yon idishning yuqori chiqarimasidan to'nkarmasdan chiqarib olinadi va ichiga mitillab turgan cho'g' bo'lakchasi (ehtiyotlik bilan) tushiriladi. Cho'g' kislorod atmosferasida lovullab yana boshlaydi.

Elektroliz yordamida suvni tarkibiy qismlarga ajratish bo'yicha tajriba o'tkazgach quyidagi xulosaga kelamiz:

- suv oddiy modda emas;
- suv molekulasida vodorod va kisloroddan tarkib topgan;
- suv molekulasida vodorod miqdori kislorod miqdoriga ikki barobar ko'p. Bu hosil bo'lgan gazlar miqdori solishtirib ko'rilganda ma'lum bo'ladi.

Pirovardida natija umumiy qabul qilingan H₂O formulaga muvofiq ekanligiga ishonch hosil qildik.

Ajralib chiqqan gazlar miqdorini quyidagi formula yordamida hisoblab topish mumkin:

$$V = \frac{I \cdot t \cdot V_e}{F}; \text{ bu yerda } I -$$

zanjirdagi tok kuchi, t — tok o'tib turgan vaqt (elektroliz o'tkazish vaqti), V_e — hajm ekvivalenti, F — Faradey doimiyi (F = 96 500 C·mol⁻¹).

Vodorod uchun hajm ekvivalenti:

$$V_e(H_2) = \frac{22,4}{2} = 11,2 \text{ bu yerda } 22,4$$

— normal sharoitda bir mol gaz egallagan hajm.

Kislorod uchun hajm ekvivalenti:

$$V_e(O_2) = \frac{22,4}{4} = 5,6 \text{ bu yerda } 22,4 -$$

normal sharoitda bir mol gaz egallagan hajm.

Ruslan AHMADJONOV,
Adham MALIKOV,
"ELXOLDING" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi metodistlari

Инсон кўклагини, Янги кунни ҳаммаша ўзгача интиқлик, соғинч билан қарши олади. Зеро, ҳар гал кўшнинг илқ нурларини эмган она замин тафти, баҳорий рангларда жилонанган обод юрт манзараси инсон қалбиди-да эзгу туйғуларни аллалайди. Яқинлашиб келаётган Наврўз байрами эса Шарқ халқларида қадим-қадимдан яшариш, янгилинининг бошланиши сифатида қадрлаб келинган. Айни кун билан тун тенг келган ушбу ондан бошлаб табиат тўла уйғонади, гўзалликка юз тутади. Деҳқон Ер тинглайди, уни англашга ҳаракат қилади. Ер эса ўзининг сирли ишоралари билан инсонга тунушча беради. Деҳқон қаерга нимани ва қачон, қандай экишни режалайди. Турналар аргимчоғини кўриб, ё паст, ё баланд учишига қараб ёҳуд хонишини эшитиб, йил мўлжалини олади...

хатлари борлиги, бир йил давомида 10 тонна гўнга тенг келади-ган куч ҳосил қилиши аниқланди. Тажрибаимизнинг моҳияти шундаки, бу ўсимликлар бўйи 15-20 см.га етгандан кейин ўриб, жойида қолдирилади(вегетация даврида тўрт марта ўрилади). Сўнгра қуриб, чириб, секин-аста тупроқ унумдорлигини оширишга ёрдам беради. Айни пайтда ресурстежамкор технология, тажриба асосида ўғитлардан кам фойдаланиб, мевалардан юқори ва си-

2013-yil — Obod turmush yili

Иккинчидан, булар 3-4 йилдан кейин ҳосилга қиради. Интенсив боғлардаги дарахларнинг танаси кичик бўлгани учун парваришlash (ишлов бериш, суғориш, кесиш, шакл бериш, дори сепиш ва мевани териш) қулай. Бундай боғларда ёруғлик тушиши, ҳаво айланиши яхши бўлгани боис мева сифати юқори бўлади, териб олиш ҳам қулай. Асосийси, боғ тупроғини доим озиклантириб ту-

МЕВАЛАРНИНГ ЯНГИ НАВЛАРИ

эл дастурхонини тўқин қилади



ойсимон шаклда (кўчат кўчатхонада шохламаган бўлса) кўзинг ўсиш қисмидан кербовка (кесиш) қилинади ва яна учта кўз ташлаб, яна учта кўз тўри чизик шаклида кербовка қилинади. Бу жараён кўчат яхши ўса бошлаган даврда бажарилса, яхши натижа беради. Ривожланган шохлар июль-август ойларига 90° эгилади ва боғланади. Ёш ўсган новдаларда мева куртакларини ҳосил қилиш мақсадида маълум вақтда чилпиб (чеканка қилиб) турилади. Бу усул ҳосил мўл бўлишини таъминлайди.

— Икки-уч йиллик кўчатлар қандай ўғитлар билан озиклантирилади?

— Янги боғлар орасига ўғит кам миқдорда берилади. Чунки илдиэлари яхши ривожланмаган бўлади. Ҳосилли бўлмаганга қараганда эш ўсган новдаларда мева куртакларини ҳосил қилиш мақсадида маълум вақтда чилпиб (чеканка қилиб) турилади. Бу усул ҳосил мўл бўлишини таъминлайди.

— Тупроқ унумдорлигини ошириш учун яна қандай чора-тадбирлар қўлласа бўлади?

— Боғларимиздаги энг яхши тупроқда ҳам 1 фоиз гумус моддаси бор, холос. Шунинг учун ерга маҳаллий ўғит солиш баробарида ёш боғларимиз орасига ер унумдорлигини оширишга ёрдам берадиган дуккакли экин(мош, нўхат, ловия)лар, ерэнғоқ ва сабзавотлар экиш зарур бўлади. Бу экинларга ишлов ва ўғит берилиши натижасида маълум миқдорда тупроқ унумдорлиги ошади. Боғлар орасига беда экса ҳам бўлади. Беда биринчи йили ривожланиш учун бутун озука(озука бафер)ни йиғди. Иккинчи йили озукани тўлиқ йиғиб бўлади. Учинчи йилга қолдирадиган бўлсангиз, фойдаси бўлмайди. Шунинг учун беда экилган майдонлар иккинчи йили кузда ҳайдаб ташланади ва йиғилган озука баферлар тупроққа куч бера бошлайди.

Ҳозир олимларимиз тупроқ унумдорлигини ошириш бўйича қатор илмий изланишлар олиб бориб, илмий натижаларга эришяпти. Масалан, ўтган йиллар тажриба-синов тариқасида боғларига ҳар хил ўғитлар — райграз(ситорат ўғит), сули, қизил беда, ёввойи ялпиз экилиб, тупроқ таркиби текшириб борилди. Сурхондарё, Фарғона, Тошкент вилоятида ўтказилган тажриба-синов пайтида бу ўсимликларнинг фойдали жи-

фатли ҳосил олиш имкони юзга келади.

— Институтнинг вилоятлардаги филиал ва тажриба хўжаликлариде амалга оширилаётган изланишлар қандай натижалар берапти?

— Марказий институтимиз базасида асосан мевали дарахлар(олма, нок, беҳи, шафтоли, олхўри, гилос, лимон, апельсин, мандарин), резавор мевалар(қулпнай, смородина) билан иш олиб борамиз. Бўстонликдаги филиалимизда олимларимиз ёнғоқсимонлилар селекцияси ва навларни ўрганиш билан шуғулланишади. Шу билан бирга, узум навлари билан ҳам ишлашади. Улар кейинги пайтларда ёнғоқ, бодом, фундук (писта)нинг янги навларини яратишга муваффақ бўлиши. Ўтган йилдан пистаннинг янги нави давлат рўйхатига киритилди.

Самарқанддаги филиалимизда кишимиз узумнинг йирик донали навларини яратиш билан шуғулланилмоқда. Мутахассисларнинг тинимсиз изланишлари ўлароқ "Кишимиз Зарафшон", "Кишимиз Сўғдиёна" (қора рангли, йирик мевали), "Кишимиз тиракли" сингари янги навлар яратилди. Оқ кишимизга нисбатан 2,5 баравар меваси йирик "Кишимиз Ботир" давлат рўйхатига киритилди. Ташқи кўриниши чиройли, карсиллаган, йирик донали "Ризамат" хўраки навимиз жуда оммалашиб кетди. Унинг ўзига хос хусусияти шундаки, бу нав меваси ойма-ой июлдан то октябргача етилиб боради.

Деновдаги Жанубий Ўзбекистон мевачилик, узумчилик станцияимизда олимларимиз иссиқхоналарда лимон, апельсин, мандарин етиштириш бўйича ҳам илмий иш олиб боришяпти. Шунингдек, улар хурмо, анор, анжир, зайтун, дафна барги, узумнинг кишимиз, хўраки навлари билан шуғулланишяпти.

Яна бир йирик филиалимиз Фарғонанинг Қувасида эса жуда катта майдонда данаклилар тури — ўрик, шафтолининг янги навлари яратилди.

— Кўчат экувчиларга қандай тавсия бераган бўлардингиз?

— Ҳозир институт ва унинг филиаллари, тажриба хўжаликлариде 4 миллион туддан ортқ кўчат тайёрланган. Шундан 500 мингга интенсив боғлар учун, яъни ярим пакана пайвандтагда пайванд қилинган олма кўчатларидир. Уларга симбагаз, темир-бетон устунлар керак эмас. Боғ яратиш анча арзон тушади.

риш зарур. Агротехник тадбирлар ўз вақтида ўтказилса, ҳар гектар майдондан тўрт-беш йил 50—60 тоннагача ҳосил олишга эришилади.

— Ҳаваскор боғбонларга, жумладан, биология ўқитувчиларига яна қандай тавсиялар берамиз?

— Агар уруғ ва данакларни кузда қумлаб қўймасақ, эрта баҳорда унмайди. Айримларини икки-уч кун сувга солиб, кейин экса ҳам бўлади. Бунда ўсимликнинг нави, тури ҳамда биологиясига қаралади. Биологияси, морфологиясини билмасдан бирор иш қилиб бўлмайди. Шунинг учун биология ўқитувчилари буни яхши билиши, ўқувчиларга кўчат ўтказиш усулини кўрсатиб бериши керак.

— Бу йил пойтахтимизда ўтказиладиган Республика инновацион гоғлар, технологиялар ва лойиҳалар ярмаркасига қандай янги навларни такдим этмоқчисилар?

— Ўтган йилги кўргазмада бир қатор янги навлар(олманинг "Детское", "Фарғиз", шафтолининг "Шарк", бодомнинг "Малика", фундукнинг "Далер") билан қатнашиб, 1-ўринни олди. Бу йил ўрикнинг "Ражабий бобо", бехининг "Мушк", смородина(қорағат)нинг "Ирода", узумнинг "Рангдор" навларини кўргазмага қўймоқчимиз. Янги навлар вегетация даврида 7-8 марта эмас, 4-5 марта суғорилади. Ушбу навлар бошқаларидан юқори ҳосилдорлиги, сифатлиги, мевасининг йирклиги, рангдорлиги, биологик фаол моддаларнинг 3—5 фоизга юқорилиги билан фарқ қилади.

— Ёши улуглар инсон табиатининг бир бўлаги экани, кўчат ўтказиш, гул экиш, маҳалла-кўйини саранжом-сарришта сақлаш, ободонлаштириш савбо ишлигини бот-бот таъкидлайдилар. Халқимизнинг бу хайрли анъаналари Обод турмуш йилида яна ҳам кенг қулоч ёзиши турган гап. Айниқса, деҳқон кўшларимизнинг гайратига гайрат бўларми?

— Кўчат эк, уруғ қада! Бунёдкорликка қароғчи бу эзгу давлат замирида улкан маъно муҳасам. Фарзандлар бақармоғлига ва ҳаёт бардавомлигига ишора қилувчи, аждодларимиз ардоқларини ушбу қадимий удумимиз бугунги дорилмон замонда янги руҳ ва янгича мазмун касб этиб бормоқда, барчани эзгу амаллар сари ундамоқда. Янада қувонарлиси, "Обод турмуш йили" давлат дастурини баҳариш доирасида маҳалла ва қишлоқларни обод қилиш бўйича кенг қўламли ишлар изчил давом эттирилади. 2013—2015 йилларда қўламазорлаштириш бўйича катта ҳажмдаги ишлар амалга оширилади. Маҳаллалар ичиндаги кўчалар бўйларига ва махсус ташкил этиладиган «яшил» худудларга ҳар йили 15 миллионга манзарали ва 29,5 миллионга мевали дарахт, шунингдек, 10 миллионга бута ҳамда гул кўчатлари экиш кўзда тутилган. Бу қаб қамрови ноҳияда катта юмушларда, кўчат ўтказиш ишларида нуруний қариялар, маҳалла оқсоқоллари саъй-ҳаракати, таълим муассасалари жамоалари ташаббускорлиги ўзига хос, самарали тадбир саналади. Энг муҳими, ёшларимиз кўчат ўтказиш, гулзор ва боғ барпо этиш асосида меҳнатсеварликка, саранжом-сарришталикка ўрганиб боради. Шу тариқа халқимизнинг юрт ободлиги, кўнгул ободлигидек хайрли анъаналари бардавом бўлади.

"Ma'rifat" мухбири Курбонбой МАТКУРБОНОВ сўзбатлашди.

Б.РИЗОКУЛОВ олган сурат.

**Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги томонидан таълим
ҚИРФИЗ тилида олиб бориладиган умумий ўрта таълим мактаблари учун 2013-2014 ўқув йилида
фойдаланишга тавсия этиладиган дарслик ва ўқув қўлланмалар
РЎЙХАТИ**

Т/р	Дарслик ва ўқув қўлланмалар номи	Муаллифлар	Тавсия этилган йили	Таъминланиш ҳолати	Т/р	Дарслик ва ўқув қўлланмалар номи	Муаллифлар	Тавсия этилган йили	Таъминланиш ҳолати
1-синф					11	География	А. Соатов ва б.	2013	ижара
1	Алифбе (Алиппе)	Б.Рисбекова ва б.	2013	беғул	12	Ботаника	Ў.Пратов ва б.	2013	ижара
2	Ёзув дафтари (Жазу дептери)	С.Рисбоев ва б.	2013	беғул	13	Ватан туйғуси	Х.Султонов ва б.	2011	ижара
3	Она тили (Эне тили)	А.Юнусалиева ва б.	2013	беғул	14	Информатика	Б.Болтаев ва б.	2013	ижара
4	Ўқиш китоби (Оқуу китеби)	А.Зулпихорова ва б.	2013	беғул	15	Муסיқа	С.Бегматов ва б.	2013	ижара
5	Математика	М.Аҳмедов ва б.	2013	беғул	16	Жисмоний тарбия (5-6)	Т.Усмонхўжаев ва б.	2013	ижара
6	Математика дафтари	М.Жумаев ва б.	2013	беғул	17	Тасвирий санъат	Муаллифлар гуруҳи	2013	ижара
7	Атрофимиздаги олам	А.Григорьянц	2013	беғул	18	Меҳнат таълими	Муаллифлар гуруҳи	2013	ижара
8	Одобнома	О.Ҳасанбоева ва б.	2013	беғул	7-синф				
9	Тасвирий санъат	Р.Ҳасанов	2013	беғул	1	Ўзбек тили	Муаллифлар гуруҳи	2013	ижара
10	Муסיқа	Ҳ.Нурматов ва б.	2013	беғул	2	Қирғиз тили (Қирғиз тили)	В.Мусаева ва б.	2013	ижара
11	Жисмоний тарбия	К.Маҳкамжонов ва б.	2013	беғул	3	Адабиёт (Адабият)	Б.Алимов ва б.	2013	ижара
12	Меҳнат таълими	И.Маннопова ва б.	2013	беғул	4	Русский язык	Муаллифлар гуруҳи	2013	ижара
2-синф					5	Инглиз тили "Fly High English"	Л.Цой ва б.	2013	ижара
1	Ўзбек тили	А. Рафиев ва б.	2012	ижара	6	Немис тили «Assalom, Deutsch!»	Н.Суханова ва б.	2013	ижара
2	Она тили (Эне тили)	С.Рисбоев ва б.	2012	ижара	7	Француз тили	В.Бухин ва б.	2013	ижара
3	Ўқиш китоби (Оқуу китеби)	Г.Тухтабаев ва б.	2012	ижара	8	Ўзбекистон тарихи	А.Мухаммаджонов	2013	ижара
4	Русский язык	Р.Толипова ва б.	2010	ижара	9	Жаҳон тарихи	Т.Салимов ва б.	2013	ижара
5	Математика	Н.Абдурахмонова ва б.	2012	ижара	10	Алгебра	Ш.Алимов ва б.	2013	ижара
6	Атрофимиздаги олам	П.Фуломов ва б.	2012	ижара	11	Геометрия	А.Азамов ва б.	2013	ижара
7	Одобнома	О.Ҳасанбоева ва б.	2012	ижара	12	Физика	П.Ҳабибуллаев ва б.	2013	ижара
8	Тасвирий санъат	М.Исакова ва б.	2010	ижара	13	Кимё	И.Асқаров ва б.	2013	ижара
9	Муסיқа	Ҳ.Нурматов ва б.	2010	ижара	14	Зоология	О.Мавлонов	2013	ижара
10	Жисмоний тарбия	К.Маҳкамжонов ва б.	2010	ижара	15	География	П.Фуломов ва б.	2013	ижара
11	Конституция алифбоси	О.Каримова	2007,2008	кутубхона фонди	16	Миллий истиқлол гоёси ва маънавият асослари	М.Қаршибоев ва б.	2011	ижара
3-синф					17	Информатика	Б.Болтаев ва б.	2013	ижара
1	Ўзбек тили	А. Рафиев ва б.	2012	ижара	18	Конституция оламига саёҳат	В.Костецкий ва б.	2007	кутубхона фонди
2	Она тили (Эне тили)	С.Рисбоев ва б.	2012	ижара	19	Тасвирий санъат	А.Сулаймонов ва б.	2013	ижара
3	Ўқиш китоби (Оқуу китеби)	А.Зулпихаров	2012	ижара	20	Муסיқа	О.Иброҳимов ва б.	2013	ижара
4	Русский язык	Р.Толипова ва б.	2010	ижара	21	Жисмоний тарбия (7-8)	Т.Усмонхўжаев ва б.	2013	ижара
5	Математика	С.Бурҳонов ва б.	2012	ижара	22	Меҳнат таълими	Муаллифлар гуруҳи	2013	ижара
6	Табиатушнослик	А.Баҳромов	2012	ижара	8-синф				
7	Одобнома	О.Ҳасанбоева ва б.	2012	ижара	1	Ўзбек тили	Ҳ.Мухиддинова ва б.	2010	ижара
8	Тасвирий санъат	М.Исакова ва б.	2010	ижара	2	Қирғиз тили (Қирғиз тили)	Б.Умиралиев ва б.	2010	ижара
9	Муסיқа	Ҳ.Нурматов ва б.	2010	ижара	3	Адабиёт (Адабият)	М.Парпиев ва б.	2010	ижара
10	Жисмоний тарбия	К.Маҳкамжонов ва б.	2010	ижара	4	Русский язык	Р.Толипова ва б.	2010	ижара
4-синф					5	Инглиз тили «Fly High English»	Л.Жўраев ва б.	2010	ижара
1	Ўзбек тили	А.Рафиев ва б.	2013	ижара	6	Немис тили «Assalom, Deutsch!»	Н.Суханова ва б.	2010	ижара
2	Она тили (Эне тили)	Б.Умталиева ва б.	2013	ижара	7	Француз тили «Le nouveau voyage en France»	З. Абдушукурова ва б.	2010	ижара
3	Ўқиш китоби (Оқуу китеби)	А.Токтомаметов ва б.	2013	ижара	8	Ўзбекистон тарихи	Қ.Усмонов ва б.	2010	ижара
4	Русский язык	М.Алиев ва б.	2013	ижара	9	Жаҳон тарихи	У.Жўраев ва б.	2010	ижара
5	Математика	Н.Бикбаева ва б.	2013	ижара	10	Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи асослари	О.Каримова ва б.	2010	ижара
6	Табиатушнослик	А.Баҳромов	2013	ижара	11	Миллий истиқлол гоёси ва маънавият асослари	Р.Қўчқор ва б.	2011	ижара
7	Одобнома	М.Холиқова ва б.	2013	ижара	12	Иқтисодий билим асослари	Э.Сариков ва б.	2010	ижара
8	Муסיқа	О.Иброҳимов ва б.	2013	ижара	13	Информатика	Б.Болтаев ва б.	2011	ижара
9	Жисмоний тарбия	К.Маҳкамжонов ва б.	2013	ижара	14	Алгебра	Ш.Алимов ва б.	2010	ижара
10	Меҳнат таълими	И.Маннопова ва б.	2013	ижара	15	Геометрия	А.Раҳимқориев	2010	ижара
11	Тасвирий санъат	А.Сулаймонов ва б.	2013	ижара	16	Физика	П.Ҳабибуллаев ва б.	2010	ижара
5-синф					17	Кимё	И.Асқаров ва б.	2010	ижара
1	Ўзбек тили	А.Рафиев ва б.	2011	ижара	18	Одам ва унинг саломатлиги	Б.Аминов ва б.	2010	ижара
2	Қирғиз тили (Қирғиз тили)	М.Темирова ва б.	2011	ижара	19	География	П.Мусаев ва б.	2010	ижара
3	Адабиёт (Адабият)	Г.Эралиева ва б.	2011	ижара	20	Жисмоний тарбия (7-8)	Т.Усмонхўжаев ва б.	2005	кутубхона фонди
4	Русский язык	О.Қодирова	2011	ижара	21	Чизмачилик	И.Раҳмонов	2010	ижара
5	Инглиз тили "Fly High English"	Л.Жўраев ва б.	2011	ижара	9-синф				
6	Немис тили «Deutsch»	М.Қиёмова ва б.	2011	ижара	1	Ўзбек тили	А.Рафиев	2010	ижара
7	Француз тили "Bonjour la France"	А.Носиров ва б.	2011	ижара	2	Қирғиз тили (Қирғиз тили)	Б.Умиралиев ва б.	2010	ижара
8	Тарихдан ҳикоялар	У.Жўраев ва б.	2011	ижара	3	Адабиёт (Адабият)	М.Парпиев ва б.	2010	ижара
9	Математика	Б.Ҳайдаров	2011	ижара	4	Русский язык	Ю.Азизханова ва б.	2010	ижара
10	Ботаника	Ў.Пратов ва б.	2011	ижара	5	Инглиз тили «Fly High English»	Л.Жўраев ва б.	2010	ижара
11	Информатика	Д.Камолитдинова	2012	ижара	6	Немис тили «Deutsch»	М.Дадаходжаева ва б.	2010	ижара
12	Табиий география бошланғич курси	П.Фуломов ва б.	2011	ижара	7	Француз тили «D'un Etat a l'autre»	С.Раҳмонов ва б.	2010	ижара
13	Ватан туйғуси	Х.Султонов ва б.	2011	ижара	8	Ўзбекистон тарихи	С.Тиллаев ва б.	2010	ижара
14	Муסיқа	А.Мансуров ва б.	2005	кутубхона фонди	9	Жаҳон тарихи	М.Лафасов ва б.	2010	ижара
15	Жисмоний тарбия (5-6)	Т.Усмонхўжаев ва б.	2006	кутубхона фонди	10	Конституциявий ҳуқуқ асослари	В.Костецкий ва б.	2010	ижара
6-синф					11	Миллий истиқлол гоёси ва маънавият асослари	О.Мусурмонова ва б.	2011	ижара
1	Ўзбек тили	Муаллифлар гуруҳи	2013	ижара	12	Иқтисодий билим асослари	Э.Сариков ва б.	2010	ижара
2	Қирғиз тили (Қирғиз тили)	С.Усеналиев ва б.	2013	ижара	13	Информатика	Б.Болтаев ва б.	2011	ижара
3	Адабиёт (Адабият)	Б.Алимов ва б.	2013	ижара	14	Алгебра	Ш.Алимов ва б.	2010	ижара
4	Русский язык	Муаллифлар гуруҳи	2013	ижара	15	Геометрия	Б.Ҳайдаров ва б.	2010	ижара
5	Инглиз тили "Fly High English"	Л.Жўраев ва б.	2013	ижара	16	Физика	П.Ҳабибуллаев ва б.	2010	ижара
6	Немис тили «Assalom, Deutsch!»	Н.Суханова ва б.	2013	ижара	17	Кимё	И.Асқаров ва б.	2010	ижара
7	Француз тили	З.Абдушукурова ва б.	2013	ижара	18	Биология. Цитология ва генетика асослари	А.Зикирjev ва б.	2010	ижара
8	Тарих	А.Саъдуллаев ва б.	2013	ижара	19	Жаҳон иқтисодий-ижтимоий географияси	А. Қаюмов ва б.	2010	ижара
9	Математика	М.Мирзааҳмедов ва б.	2013	ижара	20	Чизмачилик	И.Раҳмонов	2010	ижара
10	Физика	Н.Турдиев	2013	ижара	21	Жисмоний тарбия	Т.Усмонхўжаев ва б.	2008	кутубхона фонди

XUSH KELIBSAN, YURTIMGA BAHOR!

1—4-sinf o'quvchilari uchun bayram senariysi

Tadbirlar zali bayramona bezatilgan. Qizaloqlar «Bahor» taronasiga raqs tushmoqda. Shu payt zal eshigi ochilib, yuziga qaldirg'och niqobini taqqan bola kirib keladi.

Qaldirg'och: — Salom bolalar, meni taniyapsizlarmi?

Bolalar: — Salom, Qaldirg'och, biz seni juda yaxshi tanimiz!

O'qituvchi: — Bolalar seni nega tanishmasin? Istanang, ulardan sen haqingda nimalar bilishlarini so'rab ko'ramiz. Qani, bolalar, qaldirg'och haqida bilganlaringizni aytib bering.

Botir: — Qaldirg'och yurtimizga ko'klamni boshlab keladi. Shuning uchun uni «Bahor elchisi» deb ataydilar. Ular uya qurgan uga fayz-baraka yog'iladi. Qaldirg'ochlar bizning do'stlarimiz.

Qaldirg'och: — Balli, Botirjon.

O'qituvchi: — Ana ko'ringmi, Qaldirg'och, bolalar seni yaxshi tanishadi.

Qaldirg'och: — Xursandman. Ammo bolalar aytishganidek, bu gal Bahoroyni boshlab kelolmadim!

Bolalar (ajablanib): — Nega? Nima uchun?

Qaldirg'och: — Qarg'a uzoq o'ikalarga uchib ketayotib yo'lda siz tomonga shoshib kelayotgan Bahoroyni ko'rib qolibdi. Bilasizlarmi, bolalar, qarg'alar Bahoroyga nima deyishibdi? «Bu yil seni hech kim kutayotgani yo'q, Bahoroy keladi, deb yo'llariga hech kim mushtoq ham emas. Har yili odamlar bahor kelishiga tayyorgarlik ko'rib, ariqlarni tozalab, ko'priklarni tuzatib, daraxtlarni oqlashardi. Bu yil odamlar yalqovlashib qolibdi», debdi.

Bolalar: — Voy, yolg'onchi Qarg'a-yey. Qarg'aning shu yolg'onlariga Bahoroy darrov ishonibdimi?

Qaldirg'och: — Bahor unga «Qaldirg'ochni jo'nataman. Agar gaplaring yolg'on bo'lsa, o'zingdan ko'r», deb meni sizlarning oldingizga yubordi. Xayriyat, Qarg'aning gaplari yolg'on ekan. Bu yil yurtinigiz har galgidan ham chiroyli bo'lib ketibdi. Ko'rkam binolar, yangi-yangi o'quv maskanlari, bog'-rog'lar paydo bo'libdi. Yurtinigizga ko'z tegmasin. Bahoni intiqlik bilan kutayotganingiz hamma joyda sezilib turibdi.

O'qituvchi: — Ayniqsa, Bahoroyni bolalar juda sog'inlashgan. Ular Bahor — «Fasllar kelinchagi» haqida qancha she'r va qo'shiqlar yodlashganini bilsang edi. «Xush kelibsan, yurtimga bahor!» mavzusida rasmlar ko'rik-tanlovi o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishmoqda.

Qaldirg'och: — Bolalar, ko'klamga otgan she'rardan menga aytib bering. Bahoroyning oldiga borganimda, eshitganlarimni va ko'rganlarimni unga gapirib berar edim.

Zarina:

— Navro'z keldi, xush keldi, Dala to'la ish keldi.

Dehqonlarning boshiga Bir shirin tashvish keldi.

Navro'zi olam keldi, Baxtimiz chaman keldi, Dilga ham bayram keldi. Elga ham bayram keldi.

Qaldirg'och: — Juda ajoyib she'r ekan.

O'qituvchi: — Endi Temurbekning Qaldirg'ochga atalgan she'rini eshitamiz. Marhamat, Temurbek.

Temurbek:

— Yurtimizga har yili Bahor bilan barobar Uchib kelar qaldirg'och Assalom, deya takror.

Uning sho'x-sho'x parvozi Ko'ngillarga yoqar xush. Epchillikda oldiga Tusholmaydi biror qush.

Qaldirg'och: — Maqtoving uchun rahmat, she'rning menga manzur bo'ldi!

O'qituvchi: — Bolalar bahor haqida juda ko'p maqollar ham bilishadi.

Qaldirg'och: — Men ham maqollarni yaxshi ko'raman. Maqollardan ma'no yog'iladi. Xo'p, ulardan eshitaylik-chi.

Nozimjon: — Bahorning bir kuni yilga tatyidi.

Olimjon: — Bahorgi mehnat — qishga ziyinat.

Azimjon: — Yilning kelishi bahordan ma'lum.

Farhod: — Hamal kirdi, amal kirdi.

Qaldirg'och: — Bolalar chindan ham maqol aytishga usta ekan. Topishmoqlar ham bilishadimi? Topishmoq aytadigan bolalarga alohida sovg'am bor.

O'ktam: — Kim osibdi, yerga tushmas. Kim yoqibdi, sira o'chmas.

Qaldirg'och: — Nima ekan-a? Yaxshisi, o'zingiz aytib.

O'ktam: — Bu — oftob.

Sobir: — Ko'z ochib ko'rib bo'lmas, ko'z yumib tutib bo'lmas.

Qaldirg'och: — Topolmadim.

Sobir: — Bu — tush.

Madina: — Kuydirmasdan pishiradi.

Qaldirg'och (biroz o'y-lanib): — Yaxshisi, javobini o'zingiz ayta qoling.

Madina: — Topishmog'imning javobi oson edi. Axir, bu quyosh-ku. U qovuntarvuzlarni, uzum va sabzavotlarni kuydirmasdan pishirib yetiltiradi.

Qaldirg'och: — Chindan ham zukko bolalar ekansiz. Mana bu sovg'alar sizlarga. (bolalarga turli sovg'alar ulashadi.)

O'qituvchi: — She'r va topishmoq aytgan bolalarni olqishlab qo'yamiz.

(bolalar chapak chalishadi.)

Qaldirg'och: — Sizlar bilan vaqtim juda xush o'tmoqda.



Maktab sahnasi uchun

Endi ruxsat bersangiz, men Bahoroyning oldiga uchib borib, Qarg'aning gaplari yolg'on ekanini aytсам. «O'zbekistonda yosh-u qari seni intizorlik bilan kutmoqda. Tezroq ularning oldiga bo-raylik», deyman. Ungacha sizlar bayramni davom ettiring. Men tezda Bahoroy bilan davrangizga qo'shilaman.

O'qituvchi: — Tezroq qaytishingizni kutib qolamiz. Bizdan Bahoroyga salom ayt.

Bolalar: — Qaldirg'och, Bahoroy bilan qaytishingni kutamiz.

(Qaldirg'och bolalar bilan xayrlashib chiqib ketadi.)

O'qituvchi: — Qaldirg'och Bahoroyning eng ishonchli do'sti ekanini ko'rdingizmi? Qani, kim aytadi ishonchli do'st qanday bo'ladi?

Akram: — Ishonchli do'stlar bir-biriga yordam beradi, hech qachon do'stini aldamaydi.

O'qituvchi: — Akramjon juda to'g'ri gapirdi. Qani, kim do'stlik haqida maqol biladi?

Kamola: — Do'sting mingta bo'lsa ham oz.

Madina: — Do'sti borning — baxti bor.

Salim: — Do'st kulfatda sinaladi.

O'qituvchi: — Rahmat, bolalar.

(Shu payt eshik ochilib, boshiga gulchambar taqqan Bahoroy va Qaldirg'och kirib kelishadi.)

Bahoroy: — Salom, bolajonlar!

O'qituvchi: — Xush kelibsan, yurtimizga Bahoroy!

Bahoroy: — Qaldirg'och hammasini aytib berdi. Qarg'aning gapi yolg'onligini bilgach, shamol kabi siz tomon shoshildim.

(Bahoroy bilan Qaldirg'och keltirgan gullarini bolalarga ulashib chiqadi.)

Bolalar: — Rahmat, Bahoroy, senga ham rahmat, Qaldirg'och! Bahoroyning haqiqiy do'sti ekansan.

Qaldirg'och: — Men sizlarning ham do'stingizman.

O'qituvchi: — Aytmoqchi, bolalar, qushlar uchun bog'dagi daraxtlarga in yasab osishgan. Bu bolalardan sizlarga sovg'a.

Qaldirg'och: — Qanday yaxshi ish qilibsiz, do'stlarim!

O'qituvchi: — Hozir bolalar bahor gullari haqida she'r aytib berishmoqchi. Navbatni ularga bersak.

Komil: — Men Binafsha haqida she'r yod olganman:

Gunafshaxon, gunafsha, Guli mitti tugmacha. Ko'rganmisiz bahorda, Terganmisiz naharda? Suv bo'yida ochilar, Hidi har yon sochilar.

O'qituvchi: — Hozirgina davramizga o'n ikki muchal mehmon bo'lib kelishdi. Bu yil muchal hisobi bo'yicha ilon yili. Navbatni ilonga bersak, u bizni qachon do'stlari bilan ham bir-bir tanishtirsa, marhamat.

(Boshiga ilon niqobini taqqan bolakay davraga chiqib she'r o'qiy boshlaydi.)

Bo'ldi sichqon yilboshi, Muchalboshi — yo'lbooshi.

Sigir safdosh habibi, Har illatning tabibi.

Yo'lbars muchal yo'l ochar,

Eli yurtga rizq sochar. Andin so'ng keldi quyon, Shodlikka to'lib har yon.

Baliq yil kelib serob, Yomg'ir mo'l yog'ar — ko'lob.

Yillar shunday past-baland, Goh ajoyib, goh g'alat. Ilon yilida fayz o'zga. Bulturgidan tus o'zga.

O't kelar dovruq bilan, Toy, biya, sovliq bilan.

Qo'y yili yuvosh kelar, So'ng maymun bebosh kelar.

Tovuq yilida don-dun mo'l, Sochmay, yig'sang bo'lar ko'l.

It kelar ovchi bo'lib, Hosilga soqchi bo'lib.

Kelsa to'ng'iz, kenja bil, Berganini o'lja bil.

To'ng'iz yilida toshasan, Bir muchaldan oshasan. Har bir muchal — umring parchasi, Yomoni yo'q, yaxshi — barchasi.

(O'n ikki muchal ketma-ketlikda sahnadan joy oladi.)

O'qituvchi: — Bolajonlar, muchallarning ana shunday ketma-ketlikda kelishini va nomlarini bilib oldingiz.

Bahoroy: — Bolalar, muchal ketma-ketligini sira yodingizdan chiqarmang!

O'qituvchi: — Bahoroy, Qaldirg'och! Sizlarga bolalarning yana bir ajoyib sovg'asi bor. Ular ko'klam manzaralarini, gullar va qushlar suratini chizishni juda yaxshi ko'radilar. Yaqinda boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida «Xush kelibsan, yurtimga Bahor!» suratlar ko'rik-tanlovi o'tkazdik. Ammo biz kimga birinchi, kimga ikkinchi va uchinchi o'rinlarni berishni bilmadik. Sizlar balki bu masalani to'g'ri hal qilib bersangizlar.

(O'qituvchi rasmlar osilgan taxta yoniga Bahoroy bilan Qaldirg'ochni boshlab boradi.)

Bahoroy: — Rostini aytganda, bolalar chizgan gullar, qushlar, daraxtlar, tog'lar va bog'larni ko'rib, biz ham kimga qaysi o'rinni berishni bilolmay qoldik. Barchangiz juda chiroyli rasmlar chizibsiz. Shuning uchun Qaldirg'och bilan maslahatlashib, barcha suratlarini «a'lo'ga baholadik. Sizlar o'z tasvirlaringizda bahorni, gullarni, maysalar va qushlarni, butun tabiatni qanchalar sevishingizni ifodalabiz. Rahmat, sizlarga!

(Bolalar quvonib, chapak chaladilar.)

Qaldirg'och: — Bahoroy, zukko, bilag'on, aqli bolalarga keltirgan sovg'alarimizni topshirsak.

(Qaldirg'och bolalarga sovg'a ulashib chiqadi.)

Bahoroyoy: — Bolalar, siz tayyorlagan bayram dasturi bizga juda ma'qul keldi. Endi bizga ruxsat bersangiz, yana ko'plab Navro'z tantanalarida ishtirok etishimiz kerak. Sizlar bilan xayrlashamiz.

O'qituvchi: — Bahoroy, Qaldirg'och, sizlar bilan xayrlashish qanchalik qiyinligini bilsangiz edi. Ammo boshqalarni ham intiq qilmasdan borishingiz zarur!

Bolalar: — Xayr, Bahoroy, Xayr, Qaldirg'och.

Bahoroy: — Xayr, bolalar, men uzoqqa ketmayman. Uch oy sizlar bilan birgaman.

(Bahoroy bilan Qaldirg'och tadbirlar zalidan chiqib ketadi. Yana «Bahor» taronasi yangraydi. Raqs.)

O'qituvchi: — Mana, tadbirimiz ham yakuniga yetdi. Uylaringizga borganida onangiz, otangiz, buvi va buvalaringizni bayram bilan tabriklashni unutmang.

Navro'z bayramingiz mu-borak bo'lsin!

Hidoyat OLIMOVA,

xalq ta'limi a'lochisi

КИМ? ҚАЧОН? ҚАЕРДА?

Хар бир кашфиётнинг вужудга келиши учун йиллаб тинимсиз меҳнат қилиш зарур. Бугун кўпчиликнинг мушкуллари осон қилиб келаётган илм, замонавий кўринишга эга сенсорли мобил телефонлари ҳам узоқ йиллик изланишлар натижасида яратилган. Аниқроқ айтадиган бўлсак, сенсорли экранларнинг ривожланиш тарихи ўтган асрнинг 70-йилларига бориб тақалади. "Википедиа" электрон нашрида тақдим этилган маълумотларга кўра Сэмюэл Херстон ("Elographics" компаниясининг асосчиси) Элограф деб аталган яримўтказгич асосида ишловчи илк сенсорли қурилмани яратди. 1972 йили яратилган "PLATO IV" деб номланган компьютер монитори ана шундай технологияга асосланган эди. "Elographics" компанияси машҳур "Siemens" компанияси билан бирлашганидан сўнг сенсорли панелларни оммавий равишда ишлаб чиқариш йўлга қўйилди. 1982 йили бўлиб ўтган бутунжаҳон технологиялар ярмаркасида "Elographics" ўзининг сенсорли экранга эга илк телевизорини намойиш қилди. 1983 йили эса инфрақизил нурлари асосида ишловчи "HP-150" сенсор экранли компьютер яратилди. Бу даврга келиб сенсор экранли қурилмалар sanoat, tibbiёт va boшqa soхалarda ҳам кенг қўлланила бошланди.

Бугунги кунда сенсорли технологиядан уяли алоқа воситалари, планшет ва компьютерлар, тўлов терминаллари, автоматлаштирилган савдо ускуналари, ўйин қурилмалари, ишлаб чиқариш sanoati va tibbiётда кенг фойдаланилмоқда.

ХИЛМА-ХИЛЛИК, ЮТУҚ ВА КАМЧИЛИКЛАР

Сезувчи, ақли экранларнинг яратилиш тарихи нечоғлик хилма-хил бўлса, уларнинг турлари, ишлаш механизми ҳам ана шундай турфа кўринишга эга. Бундай технологиянинг дастлабки кўриниши яримўтказгичлар асосида ишловчи сенсорли экран ҳисобланади. "Рортеч" электрон манбасида келтирилишича, мазкур қурилмада икки қаватли ток ўтказувчи шиша ёки акрилли панел асосий рол ўйнайди. Қатламларни вертикал ва горизонтал ўтказгичларнинг бир-бирига тегиб кетишидан сақловчи кўз илғамас юмшоқ ёстиқчалар ажратиб туради. Экраннинг маълум қисми bosilganida qatlamlar bir-biriga tegadi va nazorat moslamasi elektr signalini qayd etadi. Bosilgan joy koordinatlariga qarab sensor texnologiyasi ishga tushadi. Бундай панелларнинг асосий ўзига хошлиги ҳар қандай таъсирларни сезувчанлигидадир. Масалан, яримўтказгичли сенсор экранларни қўлқоп, махсус перо ва бошқа жисмлар орқали бошқариш мумкин. Шундай бўлишига қарамай мутахассислар унинг қатор камчиликларини ҳам санаб ўтишган. Масалан, бундай экранлар оsonгина шикастланиши, тирнаниши мумкинлиги боис қўшимча химоя қатлами билан қoplanadi. Шунингдек, яримўтказгичли панеллар паст хароратли муҳитда унчалик яхши ишлаймайди. Таъкидлаш жоизки, бугунги кунда яримўтказгичли сенсор панеллар чўнтақкоп шахсий компьютерлар, мобил телефонлари, коммуникаторлар, автоматлаштирилган савдо шохобчалари, sanoat va tibbiёт ўсқуналарида кенг қўлланилади.

Электростатик сенсорли экранлар ишлаш механизми эса электр зарраларига таъсир кўрсатишга асосланган. Экраннинг барча бурчакларига жойлаштирилган сезгир қурилмалар зарядланган зарралар оқимини кузатиб, буйруқ

киритилган ҳудуд координатларини аниқлаб боради. Ушбу технология ўзининг чидамлилиги ва юқори даражадаги шаффофлиги билан ажралиб туради. Бундай экранлар 200 миллион маротаба (ҳар секундда бир марта bosilganida 6 yrim йил ишлайди) bosilganida ҳам яроқлилигини йўқотмайди. Бироқ уларга қўлқоп ёки бошқа жисмлар билан таъсир ўтказиб бўлмайди.

ган ҳар қандай буюм ҳам усқунани блокка тушириб қўйди.

Инфрақизил нурлар асосидаги сенсорли экранларда эса монитор атрофига нур таратувчи ва уни қабул қилиб олувчи усқуналар жойлаштирилган. "Computers.deria" сайтида келтирилишича, бунда экраннинг қайси қисмида нур йўли тўсилганини сезгир усқуналар қайд этади ва операцион дастурга ке-

хосил бўлади. Матн терилганидан сўнг эса суюқлик ортга қайтади ва экран яна силлиқ кўринишга эга бўлади.

СЕНСОРЛИ ДЕВОР, ИНТЕРАКТИВ СТОЛ ВА ЗАМОНАВИЙ "ТАКСО- ФОНЛАР"

Бугунги кунда сенсор технологияси ривожланишида давом этиб, ўзининг қутилмаган хилма-хил янгиликлари билан кишиларни хайратга солиб келмоқда. Жумладан, испаниялик муҳандислар "Openarch" деб номланган тизим орқали интерактив девор лойиҳасини ишлаб чиқаришди. Проектор ва сенсор қурилма ўйнинг исталган бурчагини интернет сайтлари, айниқса, ижтимоий тармоқ ихлосмандлари учун кулай экранга айлантира олади.

"Displair" компанияси мутахассислари эса экрансиз дисплей лойиҳасини яратишди. Келажак ҳақидаги фантастик кинолардагина учрайдиган ҳавода тасвир хосил қилувчи қурилмалар бугун ҳақиқатга айланмоқда. Компания муҳандислари ишлаб чиққан технология асосида майда сув зарралари билан тўлган ҳаволи бўшлиқда экран намоеён бўлади. Унинг яна бир афзаллиги шундаки, бир вақтнинг ўзидега сенсор экран сифатида ҳам фойдаланиш мумкин. Шунингдек, сув зарраларидан иборат ҳаво оқимига турли инфорлар қўшилиши, ҳосил қилинган тасвирлар бир ҳаракат билан мобил телефонларга узатилиши мумкин.

АҚШлик мутахассислар тақдим этган лойиҳа ҳам кишини хайратга солиши шубҳасиз. Улар Нью-Йорк шаҳри кўчалари учун таксофонлар ўрнини қопловчи "Smart Screen" деб номланган янги лойиҳани ишлаб чиқаришди. Мазкур қурилмаларнинг сенсорли экран диагонали 80 сантиметр бўлиб, уларда ҳудуд харитаси, транспорт тизими, яқин атрофдаги кафе ва ресторанлар, об-ҳаво, бошқарув органлари

фаолиятига оид янгиликларни тақдим этиш мумкин. Турли ёгинлар, чанг ва ташқи зарбаларга анча чидамли ишбу восита ёрдамида интернетдан

фойдаланиш имконияти йўқ, ammo улар бепул Wi-Fi (вай-фай) хизматини кўрсата олади. 90 метр радиусдаги барча мобил телефонлари ва бошқа усқуналар унинг ёрдамида бепул ва паролсиз интернетга улашиши мумкин. Ўтган йилнинг ўрталарида шаҳарнинг 5та туманида 250дан зиёд ана шундай усқуна ўрнатилди.

Кафе ва ресторанлар учун махсус ишлаб чиқарилган интерактив столлар ҳам эътиборингизни ўзига тортишдан қолмайди. Лондондаги "Inamo" деб номланган осиеча ресторанда илк ана шундай столлар мижозларга хизмат қила бошлади. Бундай столлар ёрдамида мижозлар стол ранги ва суратлари (дастурхон ўрнида) истагани мост тирнаниши, таомлар ва ичимликлар менюсини кўздан кечириши, буюртма бериши ва шу ернинг ўзидега ошхонадаги интерактив видеокамера билан боғланиб, буюртманинг қандай тайёрланишини кузатиши мумкин.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, бугун юртимизда ҳам сенсорли қурилмаларни ишлаб чиқариш кенг йўлга қўйилмоқда. Жумладан, яқиндагина "Артел" компанияси томонидан замонавий электростатик сенсорли экранга эга "ArTel Komi3" ва "ArTel Adi5" мобил телефонлари истеъмолчилар эътиборига ҳавола этилди. Улар сифат ва дизайн бора-сида дунёнинг етакчи ишлаб чиқарувчи компаниялари махсуслотларидан қолишмайди.

Санжар РУСТАМОВ тайёрлади.

СЕНСОРЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ОЛАМИ

кулайлик, самарадорлик
ва замонавийлик уйғунлиги



Энг замонавий саналган бирор технологиянинг вақт ўтиб эскириши, унинг ўрнини эса янада ривожланган, янгилик ва қулайликлар киритилган илм кўринишга эга бошқа усқунанинг эгаллашига кўчикиб қолганми. Тасаввур қилинг, шахсий компьютернингдан фойдаланиш учун бир вақтнинг ўзидега монитор, процессор, клавиатура, сичқонча ва бошқа бир нечта қурилмалар зарур. Бу эса вақт йўқотиш каби ноқулайликни юзга келтириши мумкин. Бироқ тиниб-тинчимас олимлар ана шу ноқулайликни бартараф этиш, кўпгина усқуналар имкониятларини ўзидега жамлаган ягона қурилмаларни ишлаб чиқариш борисида тинимсиз изланишлар олиб бормоқда. Сенсорли экранлар ҳам ана шундай изланишлар натижаси ўлароқ вужудга келган...

Айни дамда электростатик сенсорли панеллар кучли назорат остидаги муассасаларда, маълумотлар сақланган объектлар ва банкоматларда қўлланилади.

Бугунги кунда энг кўп қўлланилувчи проекцион электростатик сенсорларнинг фарқи жихати шундаки, уларда экран сирти фойдаланишга яроқлилиги ва асосий хусусияти — самарадорлиги билан кўпгина қурилмаларда қўлланиб келинмоқда. Жумладан, дунёга машҳур "Apple" компаниясининг сенсорли махсуслотлари айни шу технология асосида ишлайди.

Инсон қўли билан яратилган мўъжизакор қурилмалардан бири, шубҳасиз, акустик сенсорли экранлар ҳисобланади. Махсус усқуналар экран бўйлаб биз эшитмаётган частотали овоз тўлқинларини тарқатади. Экранга таъсир кўрсатилганда эса мазкур овоз тўлқинларининг ўзгаришини ўта сезгир усқуналар қайд этиб боради. Ушбу овозли сенсор экраннинг афзаллиги уларда устки қопламанинг шарт эмаслиги, ишончилиги ва шаффофлигидир. Бундай экранлар асосан автомат ўйин қурилмалари, музей, таълим муассасаларида махсус химояланган маълумотларни тақдим этувчи қурилмаларда кенг қўлланилади. Бироқ улар ҳам бир қатор камчиликлардан холи эмас. Жумладан, кучли тебранишлар, шовқинли муҳит ёки экран сирти ифлосланганда иш фаолиятида нуқсонлар кузатилади. Экран устига қўйил-


ракли буйруқни узатади. Ёруклик сезувчи қурилмалар имкониятларининг пастлиги ва қабул қилинган маълумотларни нотўғри таҳлил қилиш эҳтимолининг мавжудлиги эса ушбу экранларнинг камчилиги ҳисобланади. Экран сиртини чанг қоплаши ҳам унинг самарали ишлашига салбий таъсир кўрсатади. Бироқ бу камчиликлар катта диагонали экранларда қайд этилмаган. Технологиянинг соддалиги ва оsonгина таъмирланиши уни ҳарбий соҳада ҳам кенг қўлланишга замин яратади.

МУЪЖИЗАКОР ТУГМАЧАЛАР

Аксарият замонавий қурилма эгалари сенсорли экранда матн ёзишда қийинчиликларга дуч келади. Бошқа ҳарфларнинг босилиб кетиши, керакисиз халотлар баъзида кишининг асабийлашишига ҳам олиб келади. Сенсорли экранларда бу каби мураккабликларни бартараф этиш учун "Tactus Technology" компанияси мутахассислари зарур пайтда бўртиб чиқиб, вази фассини бажариб, сўнгра кўздан гоийб бўлувчи тугмачалар лойиҳасини ишлаб чиқди.

Мазкур қулайлик сенсорли экраннинг шишали юқори қатламини махсус суюқлик тўлдирилган пластик панел билан алмаштириш орқали амалга оширилди. Компания мутахассислари ушбу қатламнинг афзаллигини уни қарийб барча смартфонларда ҳеч қандай конструктив ўзгаришлар киритмасдан қўллаш мумкинлиги билан изохлашмоқда.

Зарур пайтда цилиндрсимон резервуардан махсус суюқлик чиқиб, силлиқ экран сиртида бўртма тугмачалар



НИЗОМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ КАФЕДРАЛАРИДА МАВЖУД БЎЛГАН ҚУЙИДАГИ БЎШ (ВАКАНТ) ЎРИНЛАРГА ТАНЛОВ ЭЪЛОН ҚИЛАДИ:

I. Доцент:

1. Умумий педагогика (3).
2. Давлат ва ҳуқуқ асослари (2).
3. Умумий психология (1).
4. Физика ва уни ўқитиш методикаси (2).
5. Математик анализ (1).
6. Математика ва уни ўқитиш методикаси (1).
7. Касб таълими методикаси (1).
8. Психология (1).
9. Педагогика (2).
10. Мактабгача таълим (1).
11. Ўзбек тилшунослиги (1).
12. Ўзбек адабиёти (2).
13. Бошланғич таълим методикаси (1).

5. Умумий тилшунослик (1).

6. Бошланғич таълим педагогикаси ва тарбиявий иш методикаси (1).

III. Ўқитувчи:

1. Демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти (1).
2. Давлат ва ҳуқуқ асослари (1).
3. Касб таълими методикаси (1).
4. Биология ва уни ўқитиш методикаси (1).
5. География ва уни ўқитиш методикаси (1).
6. Рус тили ва адабиётини ўқитиш методикаси (1).

7. Гуманитар таълим йўналишларида чет тиллар (3).

8. Ўзбек тили ва адабиётини ўқитиш методикаси (1).

9. Бошланғич таълим педагогикаси ва тарбиявий иш методикаси (3).

10. Мактабгача таълим (2).

11. Педагогика (1).

12. Психология (1).

13. Педагогик маҳорат (1).

14. Бошланғич таълим методикаси (1).

II. Катта ўқитувчи:

1. Демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти (2).
2. Умумий педагогика (1).
3. География ва уни ўқитиш методикаси (1).
4. Қозоқ тили ва адабиёти ўқитиш методикаси (1).

Танлов муддати эълон чиққан кундан бошлаб 30 кун.

Танловда иштирок этишни хоҳловчилар Юсуф Хос Ҳожиб кўчаси, 103-уй, ходимлар бўлимига мурожаат қилишлари мумкин. Мулоқот учун телефон: 255-68-70.

ЯНГИ ГОРМОН

Лос Анжелес шаҳридаги Калифорния университети олимлари яна бир гормонни аниқлашга муваффақ бўлди. Олимлар томонидан уйку ва бардамликка ўтиш жараёнида фаол иштирок этувчи гипокретин деб аталган модда илк бор кайфиятга таъсир кўрсатувчи восита сифатида тадқиқ қилинди.



«Nature Communications» журналыда келтирилишича, 2000 йилдаёқ наркотик моддаларга ружу қўйган беморлар қон таркибида гипокретин миқдори 95 фоизгача тушиб кетиши аниқланган эди. Бу улар қонида уйкуга кетиш ва уйғониш жараёнида муҳим ҳисобланган ушбу модданинг деярли йўқлигини аниқлатади. Олиб борилган изланишларда олимлар айнан гипокретин моддасининг депрессияга қай даражада боғлиқ эканини ўрганишди.

Тадқиқотчилар беморларнинг эмоционал ҳолатини шифокор ва бошқа шундай хасталикка чалинганлар билан суҳбатлашиш, телевизор томоша қилиш, овқатланиш ва уйкуга кетиш жараёнини мунтазам равишда кузатиб, ўзгаришларни қайд қилиб бордилар. Шунингдек, ҳар 15 ва 50 дақиқада улар миясининг кимёвий таркиби таҳлил қилинди. Сўнгра, олинган натижалар ҳар соатда ўтказилган психологик тест ақулилари билан солиштирилди.

Маълум бўлишича, гипокретин миқдори нафақат тетиклик, балки кайфиятга ҳам бевосита боғлиқ экан. Кайфият ижобий томонга кўтарилганда, шунингдек, ўзгариш билан суҳбатлашганда ва уйқудан уйғонганда унинг миқдори ошиши кузатилган.



ВОДОРОД БИЛАН ҲАРАКАТЛАНУВЧИ ИЛК АВТОМОБИЛЬ

Жанубий Кореянинг «Hyundai» компанияси дунёдаги биринчи «ix35 Fuel Cell» русумли водород двигателли автомобилларни кенг кўламда ишлаб чиқаришни бошлади. Атроф-муҳитга мутлақо зарарсиз бўлган

ушбу автомобиль водород ёнилғиси асосида ҳаракатланади. Автомобилга ёнилғи қуйиш жараёни бир неча дақиқагина давом этади ва бу билан ўртача 594 километр масофани босиб ўтиш мумкин.

Янги автомобильнинг тезликни 100км/с га етказиб олиши учун 12,5 сония кифоя. Унинг максимал тезлиги эса соатига 160 километрни ташкил этади.

2015 йилга қадар бундай автомобиллардан минг донга ишлаб чиқарилиши маълум қилинди. Махсулотнинг дастлабки намуналари эса Дания ва Швеция мамлакатларига сотилиши режалаштирилган бўлиб, асосий харидорлар сифатида давлат муассасалари ҳамда хусусий компаниялар тилга олинмоқда.

Бугунги кунда водород ёнилғили қурилмалар ишлаб чиқариш таннархи арзонлашиб бораётгани яқин келажакда бундай махсулотларга бўлган талабнинг кескин ортиши мумкинлигини кўрсатмоқда. Шунингдек, муқобил энергия манбаларига эҳтиёжнинг ортаётгани, қолаверса, атроф-муҳитни ифлослантираётган манбалардан имкон қадар воз кечиш бўйича олиб борилётган чора-тадбирлар ушбу махсулотлар бозори муваффақиятини таъминлаб бериши кўтилмоқда.

С.РУСТАМОВ тайёрлади.

JUMLADA JAHON

Кучли қор ёғиши натижа-сида Франция шимол-ғар-лашган Лаэ шаҳридан 150 километр узоқликда рихтер шка-ласи бўйича 6,7 баллик zilзи-ла қайд этилган ва айни пайт-да сохилбуйи ҳудудларида цу-нами хавфи бор-йўқлиги ҳақда хабар тарқатилмаган.

Папуа-Янги Гвинеянинг Ат-лантика океани қирғоғида жой-лашган Лаэ шаҳридан 150 километр узоқликда рихтер шка-ласи бўйича 6,7 баллик zilзи-ла қайд этилган ва айни пайт-да сохилбуйи ҳудудларида цу-нами хавфи бор-йўқлиги ҳақда хабар тарқатилмаган.

Ҳайвонларни химоя қилиш жамиятлари ташаб-буси билан Евроиттифоққа аъзо мамлакатларда жони-ворлар устида олиб борил-ган изланишлар асосида тайёрланган янги турдаги косметика махсулотлари ва уларнинг таркибий қисми ҳисобланган моддаларни сотишга нисбатан тақиқ ўрнатилган.

Венгрия парламенти томо-нидан мамлакат конституция-сига киритилган ўзгартириш-ларга қўра, эндиликда олий таълим муассасалари талаба-лари тахсилни тугатган ўз юр-тида ишлашга розилик билдир-гандагина стипендия олиши, акс ҳолда тўланган пуллар қай-тариб олиниши мумкин, дея хабар берилади "The New York Times" газетасида.

Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти қошидаги «Нуристон» академик лицейи жамоаси академик лицей директори Баҳром Узоқовга укаси **Насимжон УЗОҚОВ**нинг вафоти муносабати билан таъзия изҳор этади.

Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети маъмурияти ва қасаба уюшма дўмлати Механика-математика факультети «Назарий ва таъбиқий механика» кафедрасининг доценти Асқар Зокирова онаси **ҲАМРО** аянинг вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.



Беруний, Форобий, Яссавий, Замахшарий, Навоий каби мутафаккирлар ижодида устознинг касбий-ахлоқий фазилатлари хусусида ноёб фикрлар тилга олинди. Жумладан, Абу Наср Форобий устоз шогирдига жуда қаттиқ зуғум қилмасин, ҳаддан зиёд ён ҳам бермасин, деб ёзади. Чунки ортиқча зуғум шогирдда муаллимга нисбатан нафрат уйғотса, ўта юмшоқлик устозни менсимасликка олиб келади.

БЕГУБОР БОЛАЛИК НИГОҲИ

Бу қизчани илк бор кўрганымда кўзларидаги учкун, сўзларидаги дадиллик ва ўзига бўлган ишонч эътиборимни тортганди. Сўнгра унинг маҳорат билан ишланган миниатюра асарлари мени ҳайратда қолдирди. Бу жажжи қизчанинг исми — Сабрина. Қалби завққа тўла, ҳаракатчан ва интиланга эришадиган қизлардан у. Сабринанинг беғубор болалик нигоҳи, ёшлик гайрати билан ишланган ижод намуналари ўзгача жозибали. У Форш туманидаги чекка қишлоқ бағрида улғайган. Табиати мўъжизавий гўзаллиги унинг қалбини ўзига ошуфта айлаб, қўлига қалам тутқазган бўлса ажаб эмас. Асарларидаги шарқона руҳ, гўзал тасвирлар қизганининг истеъдодидан нишон.

Сабрина республика расмоллик коллежининг биринчи босқичида таълим олмакда. У эндигина 16 баҳорни қаршилаган. «Янги авлод-2010» республика болалар ижодиёти фестивалида амалий санъат йўналиши бўйича лауреатликини қўлга киритиб, «Ўзбекистон маданияти ва санъати форуми» жамғармасининг махсус дипломи билан тақдирланди. Сабрина «Камолот» ЁИХнинг туман, вилоят бўлими кенгашлири томонидан ўтказилган «Ватаним чиройи», «Оромгоҳ табиати» расмлар танловида, «Қадрият, урф-одат, анъана ва ёшлар» фестивали «Ёзни «Камалак» билан!» лойиҳаларида қатнашиб, диплом ҳамда фахрий ёрликлар билан мукофотланган.

Устози Янгибой Тўлаков Сабринага миниатюра санъатини нозик чизгиларда акс эттириш орқали гўзал тасвирлар яратиш лозимлигини ўқитириди.

Ёш мусаввира ҳар бир асари устида юрагини бериб, ойлаб ижод қилади. Турли ранглар уйғунлигида янги тасвир яратиш унинг хаёлини банд этган. Бу тўғрида унинг ўзи шундай дейди:

— Ҳар бир асарим ўзгача бўлишини истайман. Бетақрор ва нафис санъат асарини яратишга чин дилдан ҳаракат қиламан.

Сабрина «Келажақ овози-2012» республика ёшлар танловининг вилоят босқичи голиби бўлиб, республика танловида ҳам фаол иштирок этди. Бугун ёш ижодкорнинг шогирди ҳам бор. Унинг исми Умиджон. Қаҳрамонимиз миниатюра санъатини жажжи шогирдига ҳам ўргатиб келмоқда. Меҳнатлари зое кетмади. Ҳали ўзи шогирд бўлган қизнинг шогирди «Янги авлод-2012» танловининг вилоят босқичида голибликини қўлга киритди.

Сабрина катта мақсадларни кўнглига туккан. Ёш истеъдод интилиш ва ҳаракатдан асло тўхтамайди. Юрагиди олов бунга йўл қўймайди-да. Баркамолликка интилган Сабринага келажақ янги-янги ижодий ғалабаларни тўхфа этади, деган умиддамиз.

Вазира ИБРОҲИМОВА,
ЎзДЖТУ талабаси

УСТОЗ ЯРАТГАН МУҲИТ

ёш педагогларни ўзига чорлаб туради

Буни дилдан англаган Назира Аҳмедова шогирдларга талабчанлик, ишга масъулият, устозга хос бағрикенглик бобида кўплаб ёш ўқитувчиларга ўрнак бўлиб келмоқда. Тажрибали педагог шогирдларига илм мазмунини ифодалашда «айтган эдилар», «хабар берадилар», «гувоҳлик берадилар» каби самимий, ёқимли сўзлардан фойдаланиш, худбинликка берилмаслик талабини қўяди.

Назира Аҳмедова педагогик фаолиятини Ангрен шаҳридаги 30-мактабда бошланғич синфларга таълим-тарбия беришдан бошлади. Изланувчанлиги, фидойилиги боис тез орада жамоатчилик орасида обрў-эътибор қозongan устоз 1995 йилдан Республика таълим марказининг бошланғич таълим бўлимида етакчи ходим, кейинчалик бош методист

вазифасида фаолият кўрсатди. Айна пайтда эса ушбу бўлим бошлиғи сифатида бошланғич таълим самарадорлигини ошириш, ўқув жараёнига замонавий педагогик технологияларни кенг татбиқ этиш, амалиётчиларнинг касбий маҳоратини юксалтириш ва уларга узлуксиз методик хизмат кўрсатиш, изланувчан ва ижодкор ўқитувчиларнинг илғор иш тажрибасини оммалаштириш борасида салмоқли ишларни амалга ошириб келмоқда.

Ўтган давр мобайнида умумий ўрта таълим мактабларининг бошланғич синфлари учун давлат таълим стандартлари шарҳлари, юздан ортиқ дарслик, ўқув-методик қўлланмаларни такомиллаштиришда иштирок этиб, уларнинг мазмуни ва дивайзини 1—4-синф ўқувчилари ёши, психофизиологик хусусиятларига

Ta'lim fidoyilari

мослаштиришга муносиб ҳисса қўшди.

Изланувчан методист ҳаммуаллифлигида 50дан ортиқ дарслик, ўқув-методик қўлланма ва тавсиялар яратилган. Жумладан, «Алиппе» дарслиги (қирғиз тилида), «Нутқ ўстириш», «Ёзишни ўрганамиз», «Санъатимиз, ҳисоблаймиз, чизамиз ва ранглаймиз» каби методик қўлланмалар, «Педагогическая ценность дидактических игр на уроках математики в начальной школе», «Самостоятельные, проверочные и контрольные работы по математике в 3 классе» каби методик тавсиялар чоп этилиб, жойларга етказиб берилди.

Назира Аҳмедова ёшларга ғам-хўрлиги, ҳалоллиги ва самимийлиги билан ўз атрофида шундай муҳит яратганки, ёш педагоглар тажриба ўрганиш, маҳоратини ошириш ниятида доимо унга талпинди, десам муболага бўлмайди.

Кумрихон СУЛТОНОВА,
Республика таълим маркази бош методисти

ҲАРФ ЎРГАТИШ ЗАВҚИ

Мактабга илк қадам қўйган болакайнинг кўзларидаги қувонч ҳеч кўрганмисиз? Сўз билан ифодалаб бўлмайди буни. Унинг юрагидан ўтаётган туйғуларни ҳис этиш учун ўша ўқувчининг ўрнида бўлишингиз керак. Ҳеч бўлмаса, ёнида туриш лозим. Мана ўттиз йилки, мен ушбу қувончга шерикман. Аслида, шунинг деб ҳаётим янада завқли.

Истеъдодсиз бола йўқ. Тўғри, бу гапни мен айтган эмасман, аммо тажрибамда кўп бора кузатдим. Боладаги яширин иқтидорни юзага чиқариш учун эса, энг аввало, унинг қалбига йўл топиш керак.

Синфда ўттиз ўқувчи бор, ўқитувчи битта. Ҳар бир бола билан ишлаш осон эмас. Ота-оналар кўплаб-қувватламаса, уйда фарзандининг таълим-тарбияси билан жиддий шуғулланмаса, қутилган натижага эришилмайди. Бола мавзуларни ўзлаштиришда тенгдошларидан ортда қолади. Демак, синфда паст ўзлаштирувчилар пайдо бўлади. Бунга йўл қўймайлик учун ота-оналар билан аниқ режа асосида ишлашга интилам.

Биринчи синф ўқувчиси ҳарфларнинг сеҳрли оламга мафтун бўлиб қолади. Ҳар гал янги ҳарфни ўрганганда мўъжизага дуч келгандек ҳис этади ўзини. Одатда мен ҳарфни ўргатишни ёздирайдан бошлашман. Олдин ёзма, кейин босма шаклини ўрганамиз.

Баъзи ота-оналар «Болаимиз ҳарфларни энди таниётган бўлса, сиз уларни қийнаб диққат ёздираясиз...» дея эътироз билдиришади. Аммо бу ноўрин. Чунки ёзма ва босма ҳарфларни ўрганаётган бола уларни тез таниши, ўқиши ва ёзиши учун бу жуда муҳим. Хусусан, улар унли ва ундош товушларни ажратиши, бўғин кўчиришни билиб олиши керак. Мен бу борада кўплаб кўргазмали қуроллардан, илғор усуллардан фойдаланаман. Жумладан, янги ҳарф қатнашган шеърлардан фойдаланиш боланинг ўрганишини тезлаштиради. Масалан, «Т» ҳарфи иштирок этган шеър:

**Тошбақа томдан ошолмас,
Тошини ташлаб қочолмас.**

«Л» ҳарфи иштирок этган шеър:

**Лайлак келса тулқивой,
Ликопчада берди чой...**

Ўқувчилар ҳарфларни катта қизиқиш билан ўрганаётганини кўриб қувонаман, ўзимга руҳий қувват оламан. Бу куч мени ҳар кун мактабга етаклайди, ўғил-қизлар билан қанча ишламай, толиқиш нелигини билмайман.

Ҳикоят РАҲИМОВА,
Сергели туманидаги 300-ихтисослаштирилган давлат умумтаълим мактаби ўқитувчиси

МУВАФФАҚИЯТЛАР ГАРОВИ

Ўқувчиларда интеллектуал салоҳиятини юзага чиқариш, миллий ва умуминсоний қадриятларимизга чинакам ҳурмат ва меҳр уйғотиш буғунги куннинг долзарб масалаларидандир. Бу эзгу мақсадларга эришишда ўқитувчилар диққат қилиши зарур бўлган жиҳатлар бисёр.

Аввало, ҳар бир педагог таълим-тарбияда самарадорликка эришиш учун ўз феъл-атворини яхшиламоғи лозим.

Илатилар ва номаъқул одалар (худбинлик, лоқайлик, қариндош-уруғчилик, маҳаллийчилик ва манфаатпарастлик, ўзгаларни менсимаслик)дан холи бўлмоғи керак.

Ҳар бир нарсани фақат тушуниш эмас, балки ҳис этиш ҳам лозимлигини болага ўқитириш педагогнинг доимий вазифасига айлана, қандай яхши. Ҳар бир ёш қобилият ва истеъдодини ўзи, оиласи, халқининг фаровонлиги, бахт-саода-

ти, манфаати учун бахшида этаётганини ҳис қилса, бу биз педагог-ўқитувчиларнинг энг катта ютуғимиз, аслида.

Таълим-тарбия жараёнида ёшларнинг миллий урф-одатларимиз замирида муҳассам бўлган меҳр-оқибат, инсонни улғулаш, тинч ва осойишта ҳаёт, дўстлик ва тотувликни қадрлаш, турли муаммоларни биргаликда ҳал қилишликдек эзгу тушунчалар моҳиятини англашига ёрдам бериш аини мудоа. Уларни лоқайдликдан сақлайлик! Аксинча, жамият ҳаётига даҳлдорлик туйғуси билан янаша ўргатайлик!

Замон ўқувчилардан ҳар бир воқеанинг асл моҳиятини чуқур англаш, фикрни аниқ, эркин ва очик, изчил ифода этиш кўникмасига эга бўлишни талаб этмоқда.

Анвар БАДАЛОВ,
Иштихон туманидаги 37-мактаб ўқитувчиси

Ўқувчилар синфга киргач, ўқитувчи аввал уларга бир-бир назар солади. У болаларнинг саломатлиги ва кайфияти яхшилигини ҳис қилгандан сўнг машғулоти ўтишга киришади. Дарсни ноодатий тарзда бошлашга одалганган Олтиний Муродова ўқувчиларни ўз фарзандидек ардоқлаб, эркалаб мурожаат қилади. У бир неча йилдири, Учтепа туманидаги 78-умумтаълим мактабда бошланғич синф ўқувчиларига дарс беради. Муаллима машғулот давомида турли кўргазмали қурол-

БОЛАЖОН МУАЛЛИМА

лар, суратлар ҳамда аудио ва видеолавлар орқали ўқувчилар эътиборини жалб этади.

Ўқитувчининг бундай ноанъанавий усуллардан фойдаланиши ўз самарасини бермоқда. Олтиний Муродова таълим бераётган ўқувчилар турли танловларда соҳибдорлиги билан эгаллашмоқда. Жумладан, «Мустақиллик — менинг тақдиримда» кўрик-танловининг шаҳар босқичида унинг ўқувчилари биринчиликини қўлга киритди. 4-синф ўқувчиси Шаҳзода Абдухамидова «Конституциямиз — бахтимиз пойдевори» мавзусидаги ижодий иши билан туманда фахрли ўринга лойиқ топилди.

Шоира БОЙМУРОДОВА

Bolalar sporti

Бугун юртимизнинг қайси бир гўшасига борманг, жаҳон андозлари асосида қурилиб, фойдаланишга топширилган муҳташам спорт иншоотларида минглаб ўғил-қизларимиз шугулланиб, ўз саломатлигини мустаҳкамлаётганига, мусобақаларда қатнашиб, зафар кучаётганига гувоҳ бўласиз. Уларнинг орасида сизнинг ҳам фарзандингиз ёки ука-сингилларингиз бор бўлса, ажаб эмас. Айниқса, қишлоқларимиздаги шароитлардан кўнглингиз тўлади.

Бу борада Қашқадарё вилоятида ҳам ўтган йиллар давомида бир қатор эътиборга молик ишлар амалга оширилди. Мавзу юзасидан Ўзбекистон Болалар спортини ривожлантириш жамғармаси вилоят филиали директори вазифасини бажарувчи Муҳаммад-Али Умбаров билан суҳбатлашдик.

МУҲТАШАМ СПОРТ МАЖМУАЛАРИ

Энг аввало, ёшлар камоли учун хизмат қилсин

— Болалар спортини ривожлантириш жамғармаси ташкил этилганига ҳам, мана, 10 йилдан ошди. Ўтган йилларда, хусусан, 2012 йилда вилоятда қандай ютуқларга эришилди?

— Диёримизда спортга қизиққан ва ҳаётини у билан боғлаган ёшлар сони кун сайин ошиб бормоқда. Демак, ёшларимиз улар учун яратилаётган қулайлик ва шарт-шароитлардан мамнун. Аммо бу билан хотиржамликка берилиш, тўхтаб қолиш эмас, аксинча, муваффақиятлардан илҳомланиб, янада кўпроқ ишлаш, меҳнат қилиш даркор.

Президентимизнинг 2012 йил 13 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги ҳузуридаги Болалар спортини ривожлантириш жамғармаси бюджетини ҳамда 2012 йилда Болалар спортини объектлари, сузиш ҳавзалари ҳамда мусика ва санъат мактабларини қуриш ва капитал реконструкция қилишининг манзилли дастурини тасдиқлаш тўғрисида»ги қарорига кўра, ўтган йили вилоятимизда Жамғарма томонидан 10та спорт иншооти қурилди ва қайта реконструкция қилинди. Сўнгги 10 йил ичида қурилган, капитал реконструкция қилинган ва капитал таъмирланган замонавий спорт иншоотлари сони эса 143тага етгани кўвонарлидир. Мазкур объектларнинг 92,2 фоизи қишлоқ жойларида барпо этилган.

— Яратилаётган қулайликлар бераётган самара хусусида ҳам айтиб ўтсангиз?

— Жамғарма ташкил этилгач, спорт ёшларининг қалбига йўл тоғди. Жумладан, 2004 йилда вилоят ёшлари асосан спортнинг 12 тури билан шугулланган бўлиса, бугун мазкур кўрсаткич 31тага етди. Ўтган йилнинг ўзида болалар спортини иншоотларидаги спорт секциялари сони қарийб

бийларнинг хизмати бекиёс. Спорт иншоотларида кадрлар таъминоти қандай йўлга қўйилган?

— Тўғри айтдингиз, бугунга қадар эришилаётган ютуқларимиз замирида тажрибали, билимдон устозларимизнинг заҳмати, машаққати чексиз. Улар қанчалик ўз касбининг фидойиси бўлса, шогирдларининг спортга меҳри ҳам шу қадар баянда бўлади. Бугун вилоятимиздаги болалар спорт мажмуаларида 422 нафар мураббий ишляпти. Улар-

гин қўлаб, юртимизда болалар ва ўсмирлар, айниқса, қизлар ўртасида спортни ривожлантириш борасида олиб борилаётган ислохотлар самараси хусусида гапириб ўтдилар. Шундан сўнг байрамда саф торган 1835 нафар қизга спорт кийимлари топширилди.

Тадбирда вилоятимизнинг турли жойларида ташкил этилган спорт тўғрисидаги шугулланувчилари иштирокида кўргазмали чиқишлар намойиш этилди, шунингдек, таниқли санъаткор-



Касби тумани Хўжа Касби маҳалласидаги болалар спорт мажмуаси. Жамшид НОРҚОБИЛОВ (ўса) олган сурат.

дан 75 нафари хотин-қизлар, мутахассисларнинг 38,8 фоизи, яъни 164 нафари олий маълумотли мураббийлардир.

— Юртовимиз ташаббуси билан 8 март — Халқаро хотин-қизлар байрами арафасида 6 ёшдан 16 ёшгача бўлган, мунтазам спорт билан шугулланувчи қизларга спорт кийимлари тўхфа этиш ажойиб анъанага айланди. Бу тадбир вилоятда қандай ўтказилди?

— Ушбу тадбир вилоятимизнинг барча туманларида уюшқоқлик билан байрамона тарзда ташкил этилганидан ота-оналар ҳам мамнун бўлишди. 5 март кунини Қарши Олимпия захиралари спорт коллежи манежиде бўлиб ўтган тадбирда шаҳардаги таълим муассасаларида спорт билан мунтазам шугулланувчи қизларга Президент совғаси — спорт кийимлари тانتани тарзда улашилди.

Тадбирнинг очилиш маросимида сўзга чиққан вилоят ҳокими Туробжон Жўраев, Ўзбекистон Болалар спортини ривожлантириш жамғармаси ижрочи директори Эркин Искандаров иштирокчиларни байрам билан қиз-

лар дилбар куй-қўшиқлари билан тадбирга байрамона шукӯҳ киритди.

Таъкидлаш жоизки, бундай эзгу мақсадга йўналтирилган тадбирлар вилоятимизнинг барча туманларида ўтказилиб, жами 25 200 нафар қиз спорт кийимларини қабул қилиб олди.

— Жорий йилда қандай бунёдкорлик ишлари амалга оширилди кўзда тутилган?

— Ўзбекистон Болалар спортини ривожлантириш жамғармасининг 2013 йилга мўжалланган манзилли дастури лойиҳасига асосан жорий йилда вилоятимизда 12та болалар спорт объектини қуриш ва реконструкция қилиш режалаштирилган. Бу борадаги ишлар аллақачон бошлаб юборилди. Мазкур қурилиш-бунёдкорлик ишларида жамғарма маблағлари ҳисобидан 20 миллиард 134 миллион сўм йўналтирилмоқда. Яратувчанлик ишларининг давомийлиги юртимизда болалар спортининг янада ривожланиши, ёшларимизнинг ҳар томонлама barkamol бўлиб вояга етиши учун хизмат қилиши, шубҳасиз.

Ўқтам МЕЙЛИЕВ суҳбатлашди.



ФАНТАСТИК «ТУРТЛИК»

Биатлон бўйича Сочи шаҳрида ўтказилган Жаҳон кубогининг саккизинчи bosқичидан ўрин олган эстафета баҳсларида Германия хотин-қизлар терма жамоаси зафар қучди.

Немислар кватретини ташкил этган Андреа Хенкель, Эви Захенбахер-Штеле, Мириам Гесснер ва Лаура Дальмайер мусобақани кўтаринки руҳда ўтказди. Улар масофани 1 соату 9 дақиқаю 27,1 сонияда битта жарима айланаси ҳамда саккизта қўшимча патрондан фойдаланган ҳолда bosиб ўтишди.

Эътиборлиси, бу «туртлик»нинг жорий мавсумдаги иккинчи йирик муваффақияти бўлди. Дастлаб олмон биатлончилари Италиянинг Разен-Анхольц шаҳрида олтин медалларга сазовор бўлишганди.

Кейинги ўринларга эса украинalik ва норвегиялик биатлончиларнинг эстафета жамоаси кўтарилди.

ЖОКОВИЧНИНГ ГАЛДАГИ РАҚИБИ КИМ?

Теннис бўйича Индиан-Уэллс турнирида иштирок этаётган биринчи рақамли ракеткачи Новак Жокевич мусобақанинг иккинчи bosқичида италиялик Фабио Фоньинини (6:0, 5:7, 6:2) енгди.



Учрашув 1 соату 50 дақиқа давом этди. Ушбу баҳсдан сўнг икки теннисчи ўртасидаги ўзаро «хисоб-китоб»лар 4:0 кўришини олди.

Жокевичнинг учинчи bosқичдаги рақибни ким бўлиши австралиялик Мэттью Эбден ҳамда болгариялик Григор Димитров қарама-қаршилигидан сўнг ойдinлашди.

Аёллар ўртасида эса Мария Шарапова испаниялик Карла Суарес Наваррони енгилга муваффақ бўлди. У икки сет натижасига кўра, рақибасини 7:5, 6:3 ҳисобида мағлуб этди. Маринининг навбатдаги рақибни ана бир испаниялик теннисчи Лара Арруабаррена бўлади.

ЧЕМПИОН НОМИ МАЪЛУМ

Футбол бўйича Греция миллий чемпионатида глобл жамоа номи муддатидан олдин маълум бўлди. «Олимпиакос» клуби жорий йилги биринчилик голиблигини нақд қилиб қўйди.

Дам олиш кунлари ўтказилган 25-турдан ўрин олган учрашувда «Олимпиакос» АЕК жамоасини 3:0 ҳисобида енгди. Авраам Пападопулоснинг дубли ва Жамил Абдуннинг бир голи меҳмонлар мағлубиятига сабаб бўлди.

Ушбу галабадан сўнг «Олимпиакос» асосий таъкибчиси — «Астерас»дан 16 очко илгариллаб кетди. Чемпионат эса яна 5та турдан кейин ўз нихоисига етади. Энди қолган турларнинг барчасида ютқазган тақдирда ҳам «Олимпиакос» чемпионлик унвонини қўлдан чиқармайди.

Ўз тарихида қиркинчи, қатарасига эса учинчи марта Греция чемпиони бўлган «Олимпиакос» сўнгги 9 йил ичида 8 марта шоҳсўпага кўтарилди.

Хурматли
Насибхон ҚОДИРОВА!

Сизни таваллуд айёмингиз билан чин дилдан қўтлаймиз. Кўп йиллардан бери Олмазор туманидаги 46-мактабда фаолият юритиб ёш авлод таълим-тарбиясига муносиб хисса қўшиб келмоқдасиз. Шарафли ва машаққатли фаолиятингизга зафарлар тилаймиз. Юзингиздан табассум ҳеч қачон аримасин. Оилангиз, ҳамкасбларингиз ва дўстларингиз бахтига доимо соғ ва саломат бўлинг.

Эҳтиром ила ҳамкасбларингиз,
дўстларингиз ва шогирдларингиз.



Китоб миллатнинг ақл кўзини ёритувчи офтобдир!

**ГАФУР ҒУЛОМ НОМИДАГИ
НАШРИЁТ-МАТБАА ИЖОДИЙ УЙИ**

www.gglit.uz



Сизга тақдим этилаётган ўзбек ва жаҳон адабиётининг энг сара намуналаридан баҳраманд бўлинг!

Телефонлар: (+99871) 241-83-29. Моб.: (+99893) 577-41-81, (+99894) 622-74-41, (+99890) 945-06-06

www.gglit.uz E-mail: iptdgulom@sarkor.uz, info@gglit.uz

Манзилимиз: 100128, Тошкент, Шайхонтохур кўчаси, 86.

<p>Ma'rifat</p> <p>TA'SIS ETUVCHILAR:</p> <p>O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Markaziy Kengashi.</p>	<p>Bosh muharrir: Abdusamat RAHIMOV</p> <p>Tahrir hay'ati: Madamin ARIPJANOV, Jumanazar BEK-NAZAROV, Baxtiyor DONIYOROV, Farrux JABBOROV (bosh muharrirning birinchi o'rinbosari), Baxtiyor YOQUBOV (mas'ul kotib), Mahmuda MURZAYEVA, Husan NISHONOV (bosh muharrir o'rinbosari), Nurlan USMONOV (bosh muharrir o'rinbosari), "Учитель Узбекистана", Aleksey CHUKARIN (mas'ul kotib, "Учитель Узбекистана"), Sa'dulla HAKIMOV.</p>	<p>Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida № 0067 raqam bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>ISSN 2010-6416</p>  <p>9 772010 641009</p> <p>INDEKS: 149, 150. Г-318. Tiraji 65148. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3.</p>	<p>«Ma'rifat»dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart. Tahririyatga kelgan go'lozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.</p> <p>Reklama materiallari uchun tahririyat javobgar emas.</p> <p>MANZILIMIZ: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.</p> <p>Web-site: www.marifat.uz</p> <p>TELEFONLAR: mas'ul kotib—233-99-15, umumiy o'rta va maktabgacha ta'lim yangiliklari bo'limi — 236-53-16, fan, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yangiliklari bo'limi — 236-54-03, adabiyot, madaniyat, kasaba uyushmalari hayoti yangiliklari bo'limi — 236-54-69, ma'naviyat va maktabdan tashqari ta'lim yangiliklari bo'limi — 236-54-23, siyosat, xalqaro hayot va sport yangiliklari bo'limi — 236-55-58, reklama va marketing bo'limi — 233-42-92(faks), 236-54-17.</p>	<p>Bahosi sotuvda erkin narxda</p> <p>Dizaynerlar: Ma'mur AXLIDINOV, Liliya BINASHEVA.</p> <p>Navbatchi muharrir: Dilshod KARIMOV.</p> <p>Navbatchi: Jo'rabek JANGIROV.</p> <p>«Sharq» nashriyot-matbaa aksionerlik kompaniyasi bosmaxonasi.</p> <p>Korxonada manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy</p> <p>Uza xujumi — 23.00 Topshirildi — 23.00</p>
--	--	---	---	--